**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.07.01-RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YULDASHEV SAIDANVARBEK BAXROMJON O‘G‘LI

ARAB TILLI MANBALARDA FARG‘ONA VODIYSI TARIXIY GEOGRAFIYASI (IX–XIII ASRLAR)

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Andijon – 2026

UO‘K: 323:33.012.2(575.121)(09)

Fan doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук

Content of dissertation abstract of doctor of sciences

Yuldashev Saidanvarbek Baxromjon o‘g‘li
Arab tilli manbalarda Farg‘ona vodiysi tarixiy geografiyasi (IX–XIII asrlar)…….....3

Юлдашев Саиданварбек Бахромжон угли
Историческая география Ферганской долины в арабоязычных источниках (IX–XIII вв.).. 33

Yuldashev Saidanvarbek Baxromjon ogli
Historical geography of the Fergana valley in Arabic Sources (9th–13th centuries)...……....…71

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 76

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.07.01-RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YULDASHEV SAIDANVARBEK BAXROMJON O‘G‘LI

ARAB TILLI MANBALARDA FARG‘ONA VODIYSI TARIXIY GEOGRAFIYASI (IX–XIII ASRLAR)

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Andijon – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Tar527 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (http://kengash.adu.uz/tarix/) va “ZiyoNET” axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Usmonov Bahriddin Ahmedovich** tarix fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Chorotegin Tinchtikbek Kadirmambet o‘g‘li** tarix fanlari doktori, professor **Saidboboyev Zokirjon Abdukarimovich** tarix fanlari doktori, professor **Qo‘ldoshev Sherali Temiraliyevich** tarix fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.07.01-raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «05» 12 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko‘chasi, 129-uy. Andijon davlat universitetining Tarix fakulteti binosi, 1-qavat, 108-auditoriya. Tel.: (0374) 225-73-21; faks: (0374) 225-73-21; e-mail: agsu_info@edu.uz Andijon davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2672 A raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko‘chasi, 129-uy. ARM binosi).Tel.: (0374) 225-84-33; Faks: (0374) 225-88-30.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «16» 11 kuni tarqatildi.
(2026-yil «14» 11 dagi 56 - raqamli reyestr bayonnomasi)

R.T. Shamsutdinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

M.O. Alixojiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari nomzodi, dotsent

S.A.Xoshimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi globallashuv sharoitida jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan Sharq, xususan, musulmon olamining ilmiy-madaniy merosini qayta baholash va uni zamonaviy ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. IX–XIII asrlar oralig‘ida yuzaga kelgan, ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yuksalishi bilan tavsiflanadigan “Musulmon renessansi” davri insoniyat tarixida alohida o‘rin tutadi. Xususan, Toshkent shahrida tashkil etilgan “Islom sivilizatsiyasi markazi” faoliyati doirasida musulmon sivilizatsiyasi tarixini, uning ilmiy va madaniy yutuqlarini xalqaro miqyosda chuqur o‘rganish hamda keng jamoatchilikka yetkazish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu jihatdan, Birinchi Renessans davrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga asos bo‘lgan omillarni tadqiq etish nafaqat mahalliy, balki jahon tarixining muhim jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Dunyoning qator mamlakatlarida O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston tarixini o‘rganishga katta e’tibor berilmoqda. Bir necha xorijiy ilmiy muassasalarda lokal tarix, ya’ni Markaziy Osiyoning alohida mintaqalari tarixiga oid tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar butun tarix davomida O‘rta Osiyoda muhim geostrategik o‘rin tutgan Farg‘ona vodiysini ham chetlab o‘tmadi. Biroq, ular asosan mintaqaning qadimgi davr va XVIII–XXI asrlar tarixiga taalluqli bo‘lib, bu yerda ilk o‘rta asrlarda hamda IX–XIII asrlarda ro‘y bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar hozirga qadar yoritilmay qolmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, Farg‘ona vodiysining IX–XIII asrlardagi tarixiy geografiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasini kompleks hamda tizimli ravishda tadqiq etishni dolzarb ilmiy vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yadi.

O‘zbekistonda O‘rta Osiyodagi unikal tarixiy-jug‘rofiy hudud bo‘lgan Farg‘ona tarixini tadqiq etish, uning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, shu zamindan yetishib chiqqan davlat arboblari, allomalar hayoti va faoliyatini o‘rganish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, hozirgi kunga qadar vodiyning IX–XIII asrlardagi tarixiy geografiyasi atroflicha tadqiq etilmaganligini qayd etish kerak. Bu borada, ilk o‘rta asrlar tarixiga oid ishlarda mavjud tarixiy manbalarning to‘laligicha jalb qilinmaganligi, somoniylar davri tarixi esa asosan numizmatik tadqiqotlar natijasidan iborat ekanligi, IX–XIII asrlardagi tarixiy geografiyasi bilan bog‘liq talay voqealarning hali-hanuz mavhumligi ushbu mintaqa tarixiga doir ilmiy-tadqiqotlarni jonlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2020-yilning 23-noyabrida tasdiqlangan 08/1 2345-“O‘zbekiston Respublikasida tarix fani yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish va Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi” va sohaga

oid boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[1]**.**

Markaziy Osiyo tarixiga oid ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, jumladan, Tufts universiteti, Amerika eronshunoslik instituti (AQSH), Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi, Kembrij universiteti (Angliya), Osiyo san’ati tarixi assotsiatsiaysi (Fransiya), Bursa Uludag‘ universiteti (Turkiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti (Rossiya), Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti (O‘zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

IX–XIII asrlar Farg‘ona vodiysi tarixiy geografiyasi tarixiga oid ilmiy izlanishlar bo‘yicha quyidagi natijalar olingan: Xususan, VIII – XIII asrlarda Farg‘ona vodiysining islom dunyosidagi o‘rni masalalari, Buyuk ipak yo‘lining janubiy tarmog‘i aynan ushbu hudud orqali o‘tganligi Farg‘onaning tarixiy ahamiyatini yanada oshirganligi, shu bois yirik imperiyalar va davlatlar Sharq hamda G‘arb ustidan nazoratni ta’minlash uchun Farg‘ona hududiga alohida e’tibor qaratilganligi kabi masalalar ko‘rib chiqilgan (Uludağ üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü, Türkiye); IX–XIII asrlar Markaziy Osiyodagi boshqaruv an’analari, markazlashgan davlatning tashkil topishi natijasida Movarounnahr, Eron hududlarida sezilarli iqtisodiy va madaniy yuksalish kuzatilganligi ilmiy asoslangan (Tufts University, The Amerisan institute of Iranin Studies (AIIrS) AQSH); Somoniylar sulolasining Eron hududidagi davlatlari bilan o‘zaro siyosiy raqobati, Somoniylarning Eron hamda Xurosondagi ijtimoiy tayanchi, uning yemirilib borishi sabablari, madaniyatning turli sohalari, ayniqsa amaliy san’at, me’morchilikning yuksak taraqqiyotini ta’minlagan ichki va tashqi omillar yoritib berilgan (The School of Oriental and Afrikan Studies (SOAS) University of Cambridge, Angliya); Somoniylar va Qoraxoniylar davrida Sharq hamda G‘arb o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy aloqalarning rivojlanishiga keng yo‘l ochib berganligi, shaharsozlik, irrigatsiya, fan, adabiyot, me’morchilik, miniatyura, musiqa, amaliy san’atning ravnaq topib, jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgani tarixiy manbalar asosida ochib berilgan (Assoiation pour L’Art et L’histoire Asia, Fransiya).

Jahon miqyosida arab tilli manbalarda Farg‘ona vodiysi tarixiy geografiyasi (IX–XIII asrlar) masalasi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda bir qator ustuvor ilmiy yo‘nalishlar shakllangan. Xususan, Farg‘ona vodiysining siyosiy-ma’muriy va tarixiy-geografik chegaralari, uning Movarounnahr, Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Xuroson bilan o‘zaro aloqalari, arab geograflari va tarixchilarining hudud

[1] Dissertatsiya bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi https://simorgh-aiis.org/, http://www.cambridge-centralasia.org, https://histoiredesarts.culture.gouv.fr, https://ccas.uok.edu.in, https://www.uludag.edu.tr, https://www.ivran.ru, https://www.hgu.tj, https://uzfati.uz , https://beruni.uz.

haqidagi ma’lumotlarini aniqlash hamda ilmiy muomalaga kiritish; Farg‘ona hududidagi shaharlar, qishloqlar, qal’alar, savdo yo‘llari, daryolar va tog‘ tizimlarining tarixiy-geografik o‘rnini belgilash; shuningdek, IX–XIII asrlarda vodiyning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan kommunikatsiya yo‘llarini rekonstruksiya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. IX–XIII asrlar arab tilli manbalarda Farg‘ona vodiysining tarixiy geografiyasining yoritilishi muammosi fanda muayyan darajada o‘rganilgan. Bir qator ilmiy asarlarda mavzuning ayrim jihatlari o‘z ifodasini topgan. Mavjud adabiyotlarni mazmuniga ko‘ra quyidagi 4 ta guruhga ajratib tadqiq etish mumkin: 1) Arab geografiya maktabi, manbashunoslik va matnshunoslik tahliliga oid tadqiqotlar; 2) Markaziy Osiyo tarixi va tarixiy geografiyasiga oid fundamental tadqiqotlar; 3) Farg‘ona vodiysi tarixiy geografiyasiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar; 4) Tarixiy toponimik, etnotoponimik, arxeologik va numizmatik tadqiqotlar.

Tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu davrda Farg‘ona vodiysining tarixiy geografiyasi bo‘yicha kompleks tadqiqot olib borilmagan. Shuning uchun ham IX–XIII asrlar arab tilli manbalarda Farg‘ona vodiysining tarixiy geografiyasini kompleks tarzda tadqiq etish muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga molik vazifa hisoblanadi (Masalaning tarixshunosligi I bobning birinchi paragrafida batafsil yoritilgan).

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Farg‘ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi IX–XIII asr arab tilidagi yozma manbalarga murojaat etish orqali Farg‘ona vodiysi tarixiy geografiyasini to‘liq tavsif etish, gidronimlar va toponimlarni tasniflash hamda mazkur vohadagi arxeologik obyektlar bilan muvofiqlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Farg‘ona vodiysi haqida ma’lumotlarni o‘zida jam etgan IX–XIII asrlarda yaratilgan arab tilidagi tarixiy, geografik asarlarni manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etib, ularning ushbu tadqiqotdagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash.

Movarounnahr tarkibidagi alohida tarixiy-madaniy viloyat sifatida Farg‘ona vodiysi haqidagi tarixiy-geografik ma’lumotlarni aniqlash, tizimli tahlilga tayyorlash va o‘rganilmagan jihatlarini ko‘rsatib berish;

Farg‘ona vodiysi Movarounnahr tarkibidagi tarixiy-madaniy viloyat sifatidagi keng qamrovli tarixiy va geografik ma’lumotlarni yoritib berish;

geografik va tarixiy mazmundagi asarlarda Farg‘ona haqidagi ma’lumotlarni taqqoslashni amalga oshirish;

geografik-tarixiy janrdagi asarlarda Farg‘ona vodiysiga oid materiallarning o‘zaro bog‘liqligi yoki mustaqilligini aniqlash;

Farg‘ona haqidagi ma’lumotlarning kelib chiqish genezisini tadqiq etish;

al-Xorazmiy tomonidan aniqlangan Farg‘onadagi aholi punktlarining koordinatalarini hozirgi haqiqiy koordinatalar bilan solishtirish va Farg‘ona

vodiysidagi aholi punktlari koordinatalari hamda Sirdaryoning manbai haqidagi al-Xorazmiy ma’lumotlarining qanchalik to‘g‘ri ekanligini aniqlash;

Arab geografik adabiyotida Farg‘ona vodiysidagi pochta va savdo yo‘llari haqidagi ma'lumotlarini yerdagi haqiqiy masofalar bilan solishtirish;

Farg‘ona vodiysidagi shahar va manzilgohlarni Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab tarixiy geografiyasini kompleks tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida IX–XIII asrlarda yaratilgan arab tilidagi tarixiy-geografik asarlar, shuningdek, shu davrda yaratilgan umumiy tarix tipidagi manbalar belgilangan.

Tadqiqotning predmetini arab tilidagi yozma manbalar asosida Farg‘ona vodiysi tarixiy geografiyasiga oid dalillar va ulardagi ma’lumotlarni tizimli qiyoslash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida obyektivlik, tarixiylik, izchillik tamoyillari, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xitoy, arab-fors tilli manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib Farg‘ona vodiysining mintaqalararo va qit’alararo yo‘llar kesimida joylashgani natijasida o‘ziga xos siyosiy hamda iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lganligi tufayli asrlar davomida Markaziy Osiyoning o‘troq hamda ko‘chmanchi madaniyatlari sintezlashgan hududga aylanganligi isbotlangan;

Fanda ma’lum bo‘lgan arab manbalariga yangicha yondashuv orqali ularning ishonchliligi tekshirilib, Ibn Xurdodbehning Farg‘ona vodiysi shaharlari haqidagi ma’lumotlari aholi punktlari orasidagi real masofalar bilan solishtirilib, ko‘p marotaba qayta yozilish natijasida yuzaga kelgan raqamli xatoliklar aniqlangan va vodiy hududi uchun “farsax” o‘lchov birligining uzunligiga aniqlik kiritilgan;

Abu Rayhon al-Beruniy asarlarida uchraydigan Xakas (حكث / حيكث) toponimining tarixiy-geografik lokalizatsiyasi manbashunoslik, kartografik va toponimik tahlil usullari asosida amalga oshirilib, uning hozirgi Andijon tumani hududidagi Xakan qishlog‘i bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan dalillandi;

Al-Xorazmiy va Yoqut Hamaviy keltirgan Farg‘ona vodiysi haqidagi geografik ma’lumotlarning o‘xshashligi, geografik koordinatalarning asl manbasi yunon mualliflari, jumladan, Ptolemey ekanligi tarixiy manbalar asosida dalillangan;

Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan Farg‘ona vodiysida islom dini XI asrda uzil-kesil umumiy din sifatida qabul qilinganligi haqidagi farazlar vaqti-vaqti bilan vodiy hududiga urush yoki migratsiya asosida islomni qabul qilmagan turkiy qabilalarning kirib kelishiga tayanganligi, bu jarayon XII-XIII asrda ham davom etganligi esa bu fikrlarning ishonchsiz ekanligini ko‘rsatishi, aslida islom dini IX asrdayoq vodiy aholisi orasida keng tarqalganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Kitab g‘arayib al-funun va mulax al-uyun” hamda as Sam’oniyning “Mo‘jam ash-shuyux” asarlarining qo‘lyozma manbalaridagi Farg‘ona vodiysi va Sirdaryo haqidagi ma’lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi;

Geografik janrdagi asarlardagi Farg‘ona vodiysi haqidagi ma’lumotlar matn jihatidan taqqoslandi va qiyosiy tahlili amalga oshirildi hamda tadqiqot natijalariga doir xulosa va takliflar ishlab chiqildi;

Al-Idrisiy xaritalari al-Istaxriy va Ibn Havqal xaritalari bilan solishtirilib, xaritalar hamda ularni izohlovchi matnlarda tilga olingan Farg‘ona vodiysi shaharlari soni qiyosiy tahlil qilindi;

Geografik janrdagi asarlardagi Farg‘ona vodiysi haqidagi ma’lumotlarning bir-biriga aloqadorligi, mansubligi yoki o‘ziga xosligini aniqlash natijasida Farg‘ona vodiysining shahar va manzilgohlarini Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab tarixiy geografiyasini kompleks tadqiq etishga muvaffaq bo‘lindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Jahon tarixi fanidagi ilmiy yondashuv va usullar asosida xitoy, sug‘d, arab va fors tillaridagi yilnoma, sayohatnoma, hisobot shaklidagi yozma manbalardan foydalanilganligi, tadqiqotning natijalari respublika va xalqaro anjumanlarda bayon etilganligi hamda respublika, xalqaro ilmiy jurnallarda e’lon qilinganligi tadqiqot natijalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, undan Farg‘onaning o‘rta asrlar tarixini o‘rganish bo‘yicha o‘tkaziladigan ilmiy tadqiqotlarda hamda maktab, litsey, oliy o‘quv yurtlari talabalari va o‘qituvchilari uchun yangi avlod darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyadagi umumlashtirilgan ma’lumotlardan IX–XIII asrlardagi arab tilli manbalarda Farg‘ona vodiysining tarixiy geografiyasining yangi qirralarini dunyo hamjamiyati va xalqimiz o‘rtasida keng targ‘ib qilish borasidagi ishlarning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. IX–XIII asrlar arab tilli manbalarda Farg‘ona vodiysining tarixiy geografiyasini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Xitoy, arab-fors tilli manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib Farg‘ona vodiysining mintaqalararo va qit’alararo yo‘llar kesimida joylashgani natijasida o‘ziga xos siyosiy hamda iqtisodiy imkoniyatlarra ega bo‘lganligi tufayli asrlar davomida Markaziy Osiyoning o‘troq hamda ko‘chmanchi madaniyatlari sintezlashgan hududga aylanganligi isbotlanganligiga oid ilmiy xulosalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2025-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining VIII yo‘nalishi 41-bandida belgilangan “Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy me’rosini o‘rganish orqali aholi o‘rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o‘zligidan faxrlanish tuyg‘ularini kuchaytirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 4-avgust 10/501-son ma’lumotnomasi). Natijada, targ‘ibot materiallarining Vatan tarixiga doir ilmiy va ishonchli dalillar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

Fanda ma’lum bo‘lgan arab manbalariga yangicha yondashuv orqali ularning ishonchliligi tekshirilib, Ibn Xurdodbehning Farg‘ona vodiysi shaharlari haqidagi ma’lumotlari aholi punktlari orasidagi real masofalar bilan solishtirilib, ko‘p marotaba qayta yozilish natijasida yuzaga kelgan raqamli xatoliklar aniqlangan va vodiy hududi uchun “farsax” o‘lchov birligining uzunligiga aniqlik kiritilganligi haqidagi ma’lumotlardan “O’zbekiston tarixi”, “O’zbekiston” teleradiokanalida 2024–2025-yillarda efirga uzatilgan “Tarix ko’zgusi”, “Ta’lim va taraqqiyot” dasturlari ssenariylarini yozishda foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” telekanali davlat muassasasining 2025-yil 12-avgust 05-09-1292-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuvning IX–XIII asrlar arab tilli manbalarda Farg‘ona vodiysining tarixiy geografiyasiga oid ma’lumotlar va ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta’minlangan.

Abu Rayhon al-Beruniy asarlarida uchraydigan Xakas (حكث / حيكث) toponimining tarixiy-geografik lokalizatsiyasi manbashunoslik, kartografik va toponimik tahlil usullari asosida amalga oshirilib, uning hozirgi Andijon tumani hududidagi Xakan qishlog‘i bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan dalillanganligiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan AL-442201944-raqamli “O‘zbekiston tarixi davlat muzeyidagi noyob muassasasining 3D animatsiyali virtual galereyasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasidagi vazifalar ijrosini bajarishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 2-oktabr 01/01/-3978-son ma’lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi geografik janrdagi asarlardagi Farg‘ona vodiysi haqidagi ma’lumotlarning bir-biriga aloqadorligi, mansubligi yoki o‘ziga xosligini aniqlash natijasida Farg‘ona vodiysining shahar va manzilgohlarini Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab tarixiy geografiyasini kompleks tadqiq etishga xizmat qilgan;

Al-Xorazmiy va Yoqut Hamaviy keltirgan Farg‘ona vodiysi haqidagi geografik ma’lumotlarning o‘xshashligi, geografik koordinatalarning asl manbasi yunon mualliflari, jumladan, Ptolemey ekanligi tarixiy manbalar asosida dalillanganligiga doir ma’lumotlar Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyini yangi innovatsion ma’lumotlar bilan to‘ldirilishiga xizmat qilib, tashrif buyuruvchilarga ma’lumotlarni tarixiy manbalar asosida ta’sirchan yetkazishda foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 3-oktabr 04-05/3901-sonli ma’lumotnomasi). Natijada muzeyga tashrif buyuruvchilarning O‘zbekiston tarixiga doir bilim, tasavvurlarini yanada boyitishga hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan;

Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan Farg‘ona vodiysida islom dini XI asrda uzil-kesil umumiy din sifatida qabul qilinganligi haqidagi farazlar vaqti-vaqti bilan vodiy hududiga urush yoki migratsiya asosida islomni qabul qilmagan turkiy qabilalarning kirib kelishiga tayanganligi, bu jarayon XII-XIII asrda ham davom etganligi esa bu fikrlarning ishonchsiz ekanligini ko‘rsatishi, aslida islom dini IX asrdayoq vodiy aholisi orasida keng tarqalganligi asoslanganligi haqidagi yangi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan AL-442201944-raqamli “O‘zbekiston tarixi davlat muzeyidagi noyob eksponatlarini 3D animatsiyali virtual galereyasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasidagi

vazifalar ijrosini bajarishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 2-oktabr 01/01/-3978-son ma’lumotnomasi). Loyiha uchun taqdim etilgan ma’lumotlar Farg‘ona vodiysida islom dinining tarqalishiga oid masalalarga oydinlik kiritadi va natijalar yoshlarning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-nazariy konferensiya va seminarlarda, jumladan, 2 ta xalqaro – “Current trends in the development of modern educational technologies” (Munix / Germaniya, 2025) va “Сұлтан Бейбарыстың 800 жылдығына арналған «Дешті Қыпшақтың тарихи тұлғалары: Бейбарыс және оның кезеңі” (Atirau / Qozog‘iston, 2023) hamda 4 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari uchun asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, ulardan 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa hamda foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 260 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilish darajasi alohida tahlil qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obyekti, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi va uning joriy qilinishi hamda ishning tuzilishi tavsiflangan.

Tadqiqotning **“Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tarixshunosligi va manbashunosligi”** deb nomlangan birinchi bobida masalaning nazariy-uslubiy jihatlari, mavzu yuzasidan erishilgan yutuqlar bilan birga, uning kam o‘rganilgan jihatlari, muammoli tomonlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, arab, fors va xitoy tilli manbalarning tadqiq etilayotgan mavzu uchun ahamiyati tahlil qilingan.

Tarixiy geografik tadqiqotlarda fransuz tarixiy geografiya maktabi va geografik possibilizm, Annallar maktabi va geotarixiy sintez, Buyuk Britaniya tarixiy geografiya maktabi, Germaniya kartografik va tarixiy-geografik maktabi, Amerika tarixiy geografiya maktabi va rus tarixiy geografik maktablarining ilmiy-metodologik qarashlari ustuvorlik kasb etadi[2]. XIX–XX asrlar chegarasida tarixiy geografiyaning yetakchi milliy maktablari shakllandi. Fransiyada J.J.E.Reklyusning geotarixiy sintezga asoslangan tadqiqotlari[3] hamda P. Vidal de la Blache va uning izdoshlari tomonidan rivojlantirilgan “inson geografiyasi”

[2] Yuldashev S. Jahon mamlakatlari tarixiy geografiyasi. – Farg‘ona: Classik, 2023. – B. 6-17.
[3] Reclus E. Nouvelle geographie universelle : la terre et les homes. – Paris: Hachette, 1875. – 1040 p.; Reclus E. L’Homme et la Terre. – Paris: Librairie universelle, 1905. – 609 p.

maktabi tarixiy geografiya metodologiyasining rivojlanishida muhim o‘rin egalladi[4]. J.Brun[5], A.Demanjyon[6], L.Gallua[7], P.Defonten[8] kabi tadqiqotchilar ishtirokida shakllangan ushbu ilmiy yo‘nalishda geografik possibilizm konsepsiyasi muhim metodologik tamoyil sifatida qaror topdi.

Tarixiy geografiya metodologiyasining rivojlanishida Fransiyada shakllangan Annallar maktabi vakillarining qarashlari ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, L.Febvr[9] va F. Brodel[10] o‘z tadqiqotlarida tarixiy jarayonlarni geografik makon, tabiiy muhit, iqtisodiy munosabatlar va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgandilar. Ularning yondashuvida tarixiy jarayonni faqat siyosiy voqealar ketma-ketligi orqali emas, balki uzoq muddat davomida shakllangan geografik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o‘zaro ta’siri orqali tushuntirishga katta e’tibor qaratildi.

Farg‘ona vodiysining IX–XIII asrlardagi tarixiy geografiyasini arab tilli manbalar asosida tadqiq etishda tarixiy geografiya fanining XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan nazariy-metodologik qarashlari muhim ilmiy asoslardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Germaniyada rivojlangan antropogeografiya maktabi geografik makon, tabiiy muhit, aholi, madaniyat va tarixiy jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tadqiq etishga katta e’tibor qaratdi. Ushbu yo‘nalishning eng yirik vakillaridan biri Fridrix Ratzel (1844–1904) bo‘lib, uning Anthropogeographie asarida geografik muhitning xalqlar tarixi, ularning joylashuvi, migratsiyasi va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga ta’siri masalalari tizimli ravishda ko‘rib chiqilgan. F.Ratzel geografiyaning tarix bilan aloqasini kuchaytirib, inson va makon munosabatlarini tarixiy jarayonlarni tushuntirishning muhim omillaridan biri sifatida qaradi[11].

XIX asrda Farg‘ona O‘rta Osiyoning eng kam tadqiq etilgan, tashqi dunyo uchun kam ma’lum bo‘lgan mintaqalaridan biri hisoblangan. Bu davrda O‘rta Osiyoda fan o‘rta asrlar darajasida bo‘lgan. Bir tomondan, mahalliy olimlar mintaqaning tarixiy-geografik, tarixiy-etnografik tadqiqotlari bilan Yevropa ilm-fani darajasida shug‘ullana olmagan, boshqa tomondan, Farg‘ona vodiysi Yevropa olimlari uchun yetib bo‘lmas mintaqalar qatoriga kirgan. Qo‘qon xonligi egallanib, Farg‘ona vodiysi Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgandan keyingina ushbu o‘rganilmagan hudud nafaqat rus olimlari, balki yevropalik olimlar uchun ham ochildi. Bu jarayon fonida mazkur mintaqa tarixiga oid dastlabki tadqiqotlar vujudga keldi.

---

[4] Vidal de La Blache. Principes de géographie humaine. – Paris: A. Colin. – 356 p.
[5] Brunhes J. La Géographie humaine: essai de classification positive. Principes et exemples. – Paris: Félix Alcan, 1910. – 559 p.
[6] Demangeon A. Problèmes de géographie humaine. – Paris: Armand Colin, 1942. – XIX, 407 p.
[7] Gallois L. Régions naturelles et noms de pays: étude sur la région parisienne. – Paris: A. Colin, 1908. – 356 p.
[8] Deffontaines P. Géographie et religions. – Paris: Gallimard, 1948. – 174 p.
[9] Febvre L. La Terre et l’évolution humaine: introduction géographique à l’histoire. – Paris: La Renaissance du Livre, 1922. – XXVII, 472 p.
[10] Braudel F. La Méditerranée et le monde méditerranéen à l’époque de Philippe II. – Paris: Armand Colin, 1949. – XV, 1160 p.; Braudel F. Civilisation matérielle, économie et capitalisme, XVe–XVIIIe siècle. – Paris: A. Colin, 1979. – 3 vol. (543, 599, 606 p.).
[11] Ratzel F. Anthropogeographie: Grundzüge der Anwendung der Geographie auf die Geschichte. – Stuttgart: J. Engelhorn, 1882. – 506 p.

Hozirgi kunga qadar jahon va O‘zbekiston tarixshunosligida Farg‘onaning o‘rta asr tarixiy geografiyasiga oid qator ilmiy asarlar yaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda mintaqa tarixining ayrim jihatlari xususida jiddiy ilmiy mulohazalar uchraydi. Yaratilish vaqti va joyiga ko‘ra, mavjud adabiyotlarni quyidagi 4 ta guruhga ajratish mumkin:

1. Arab geografiya maktabi, manbashunoslik va matnshunoslik tahliliga oid tadqiqotlar. Turli mamlakatlar olimlari qalamiga mansub O‘rta Osiyo tarixiga bag‘ishlangan ayrim asarlarda Farg‘ona vodiysining IX–XIII asrlar tarixiga oid ba’zi ma’lumotlar uchraydi. Biroq, shu kunga qadar xorijiy mualliflar tomonidan Farg‘ona vodiysining IX–XIII asrlar tarixiga oid alohida maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Shunga qaramay, Fransiya, Rossiya, Yevropa, Amerika, Turkiya, Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarida e’lon qilingan ilmiy ishlarda bizni qiziqtirgan muammo doirasida ayrim e’tiborga loyiq fikrlar bayon etilgan[12].

Farg‘ona vodiysi haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, arab tilidagi geografik asarlardan foydalanilgan birinchi asar mashhur avstriyalik arabshunos A.Sprenger qalamiga mansubdir[13]. A.Sprenger IX–XIII asrlarga oid arab tilli tarixiy-geografik manbalaridan foydalangan holda o‘g‘uz qabilalari, shuningdek, O‘zgand, Axsikent kabi Farg‘ona shaharlari haqida bir qancha ishonchli ma’lumotlarni aniqlaydi. Sharqshunos olim o‘z asarida Ibn Xordodbeh (IX asr), al-Istaxriy (X asr), Ibn Havqal (X asr), al-Idrisiy (XII asr) asarlaridan Farg‘ona shaharlari haqidagi ma’lumotlarning tarjimasini keltiradi[14]. Muallif Farg‘ona vodiysi geografiyasi haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lmagan holda bu asarni yozilganligini alohida qayd etish lozim. Ma’lumotlar ham asosan tarjima holida berilgan, tahlil etilmagan.

Arab manbalarida asosida O‘rta Osiyoning tabiiy tarixiy geografiyasini yoritib beruvchi ilmiy maqolalar va tezislar chop etilgan bo‘lib, ulardan biri H.Mamadaliyevning “IX–X asrlar arab manbalarida Farg‘ona shaharlarining tavsifi” nomli maqolasi hisoblanadi. Ushbu maqolada arab manbalaridan keng foydalanilgan[15].

O‘rta Osiyoning IX–XII asrlar tabiiy tarixiy geografiyasini arab manbalari asosida tadqiq etgan tarixchi R.T.Xudayberganov o‘z monografiyasini sayyoh,

---

[12]D`herbelot M.B. Bibliotheque oriental ov dictionaire universel. – Paris: Compagnie des Libra`res, 1697. – 1078 p; Крачковский И.Ю. Арабская географическая литература. – Москва, 2004. – С. 132; Tomaschek W. Centralasiatische Studien. I. Sogdiana. Wien. 1877. – P. 20, 50-51; Brockelmann C. Das Verhaltniss von Ibn-el-Atirs Kamil fit-ta'rih zu Tabaris Ahbar errusul wal muluk. Strassburg. 1890; Булгаков П. Сведения арабских географов IX – начала X вв. о маршрутах и городах Средней Азии. Автор. дисс. ...канд. ист. наук. – Ленинград, 1954. – 16 с.; Бейсебаев Р.С. Арабские источники IX – начала XIII вв. о Восточном Мавераннахре. Дисс. ...канд. ист. наук. – Санкт-Петербург, 2008; Чоротегин Т. Этнические ситуации в тюркских регионах Центральной Азии домонгольского времени: По мусульманским источникам IX—XIII вв. Под ред. Бори Ахмедова. – Бишкек, 1995. – 208 с.; Мамадалиев Ҳ. IX–X асрлар араб манбаларида Фарғона шаҳарларининг тавсифи // Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда мавзуидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Фарғона, 2009. – Б. 98-100.

[13] Sprenger A. Die Post- und Reiserouten des Orients. Abhandlungen fur die Kunde' des Morgenlande, 1864. III, №3. – Leipzig. – P. 25.

[14] Sprenger A. Die Post- und Reiserouten des Orients. Abhandlungen fur die Kunde' des Morgenlande, 1864. III, №3. – Leipzig. – P. 25-26.

[15]Мамадалиев Ҳ. IX–X асрлар араб манбаларида Фарғона шаҳарларининг тавсифи // Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда мавзуидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Фарғона, 2009. – Б. 98–100.

geograf Istaxriy va uning X asr musulmon dunyosi tavsifiga bag‘ishlagan “Kitab al-masalik val-mamalik” asari tadqiqiga bag‘ishlagan. Unda «Kitab al-masalik val-mamalik» asarining bevosita Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy geografiyasi bilan bog‘liq “Xuroson” va “Movarounnahr” iqlimlarining tarjimasi amalga oshirilgan. Asar tarjimasi o‘ziga xos tarzda yangicha yondashgan holda amalga oshirilgan. Tarjima uchun asarning arab tilidagi (11 ta) va forsiy tarjimasidagi (8 ta) qo‘lyozma va nashrlardagi matnlari jalb etilgan. Kitob Markaziy Osiyoning o‘rta asrlar tarixiy geografiyasini o‘rganishda asosiy manbalardan biri sifatida tarixchi mutaxassislar va umuman kitobxonlar diqqatiga taqdim etilgan.

2. Markaziy Osiyo tarixi va tarixiy geografiyasiga oid fundamental tadqiqotlar. Ikkinchi guruhga mansub ilmiy asarlar ham davriy hamda geografik jihatdan keng ko‘lamlidir. Rossiya imperiyasi va sovet davrida tadqiq etilayotgan mavzuning ayrim jihatlariga aloqador bo‘lgan yirik tadqiqotlar sirasiga O.Bolshakov, V.V.Bartold, B.G.Gafurov, H.Ne’matov, T.Qodirova, Sh.Kamoliddinov, va boshqalar asarlarini kiritishimiz mumkin. Ammo ushbu asarlarning asosiy obyekti Farg‘ona vodiysi bo‘lmaganligi bois ularda biz tanlagan mavzu bo‘yicha qisqa va uzuq-yuluq ma’lumotlar uchraydi, xolos[16].

3. Farg‘ona vodiysi tarixiy geografiyasiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar. Istiqlol yillarida O‘zbekistonda ushbu mavzuga qisman aloqador bo‘lgan qator ilmiy ishlar e’lon qilindi. IX–XIII asrlar Farg‘ona tarixiy geografiyasining ayrim jihatlari A.Bernshtam, A.Anarbayev, A.Ataxodjayev, S.B.Yuldashev, Y.Akyurek, Nurak Pomuk O‘zturk, B.Matboboyev kabi olimlarning asarlarida o‘z aksini topdi[17]. A.Otaxo‘jayevning 2009, 2012 va 2014-

[16] Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. 1 – Москва: Восточная литература, 1963. – 763 с; Uning o‘zi. Арабское завоевание и Туркестан при Саманидах / Соч. Т. II (1). – Москва: Наука, 1963. – С. 118–127; Uning o‘zi. К истории арабских завоеваний в Средней Азии // Соч. Т. II (2). – Москва: Наука, 1964. – С. 380–388; Иностранцев К.И. О древнеиранских погребальных обычаях и постройках // ЖМНП. Нов. Серия. СПб., XX. –№3, 1909; Гафуров Б.Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн I. – Душанбе: Ирфон, 1989. – 378 с; Uning o‘zi. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн II. Душанбе: Ирфон, 1989. – 386 с; Кадырова Т. Из истории крестьянских движений в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в. – Ташкент: Фан, 1965. – 238 с; Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – Москва: Наука, 1970. – 310 с; Неъматов Ҳ. Давлати Сомониён: точикон дар асрҳои IX-X. – Душанбе: Ирфон, 1989. – 352 с; Шаниязов К. Узбеки-карлуки. – Ташкент: Фан, 1964. – 165 с.; Zambaur E. de. Manuel l genealogie et de chronologie pour l’historie de l’islam. Hannover: Orient-Buchhangung Heinz Lafaire, 1927. – P. 13, 240, Christopher I. Beckwith. Empires of the Silk Road (a history of Central Eurasia from the Bronze age to the present). – New Jersey: Prinseton university press, 2009. – P. 133, Zekeriya Kitapçi. Türkistan'in araplar tarafindan fethi. – Istanbul:Türk dünyasi araştirmalari vakfi, 2000. – 170 s. va boshqalar.

[17] Анарбаев А. Ахсикет – столица древний Ферганы. – Ташкент: Тафаккур, 2013. – 572 с; Камолиддин Ш. Фарғона қадимда ва ўрта асрларда // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги учинчи республика илмий анжумани. – Фарғона, 2014. – Б. 33–39; Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда шимолий Фарғона ихшидлиги масаласига оид мулоҳазалар // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги иккинчи республика илмий анжумани. – Фарғона, 2009. – Б. 146–151; Uning o‘zi. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Тошкент: Арт-Флех, 2010. – 219 б; Uning o‘zi. Илк ўрта асрларда Фарғонанинг халқаро муносабатларда тутган ўрни // “Фарғона водийси тарихи муаммолари” республика илмий анжумани материаллари. – Наманган, 2012. – Б. 156–161; Uning o‘zi. Фарғона подшоси Алутарнинг илк ўрта асрлар тарихидаги ўрни // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги иккинчи республика илмий анжумани. – Фарғона, 2012. – Б. 97–101; Uning o‘zi. Араб халифалиги сиёсий ҳаётида фарғоналиклар иштироки // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги халқаро илмий анжумани. – Фарғона, 2019. – Б. 118–123; Иванов Г.П., Ширинов Т., Матбобоев Б. Аҳмад Фарғоний даврида Қува шаҳри. – Тошкент, 1998; Матбабаев Б.Х. К истории культуры Ферганы в эпоху раннего средневековья. – Ташкент. 2009. – 179 с.; Yunus A. Fergana bölgesinin islâm tarihindeki yeri ve önemi (VIII.-XIII. Yüzyillar arasi). Doktora Tezi. – Bursa, 2008 va b.

yillarda Farg‘ona va Namangan shaharlarida o‘tkazilgan “Farg‘ona vodiysi yangi tadqiqotlarda” mavzusidagi respublika ilmiy anjumanlarida e’lon qilgan maqolalari aynan biz o‘rganayotgan davr – ilk o‘rta asrlardagi Farg‘ona vodiysi tarixiga oid muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi[18].

4. Tarixiy toponimika, etnotoponimika, arxeologik va numizmatik tadqiqotlar[19]. Rossiya imperiyasi davrida Somoniylar davlati tarixini o‘rganish ishlarini V.A.Tizengauzen boshlab berdi. Uning “Imperator arxeologiya jamiyati”ning Sharqiy bo‘limiga topshirgan “Somoniylar tangalari haqida”[20] nomli hisobot ishida dastlabki iqtisodiy tarixiy geografiya uchun muhim manba hisoblangan somoniy hukmdorlar Ahmad ibn Asad, Nuh ibn Asad, Ishoq ibn Asad va boshqalar to‘g‘risida numizmatik ma’lumotlar berib o‘tadi[21]. Ushbu ma’lumotlar orqali somoniylar davrida hukmronlik qilgan Farg‘ona hukmdorlarining faoliyatiga yanada aniqlik kiritishimiz, shuningdek, Farg‘ona vodiysi iqtisodiy tarixiy geografiyasi, pul muomalasi kabi masalalariga aniqlik kiritishda foydalanish mumkin.

Mavzu islom tarixining mumtoz davri bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, bu davrning asosiy manbalari, asosan arab va ba’zi fors tillaridagi manbalardan olingan ma’lumotlar mahalliy hamda xorijiy zamonaviy tadqiqotlar bilan qiyoslandi, shu asosda sharhlandi, kerakli o‘rinlarda konstruktiv tanqid qilindi. Siyosiy, iqtisodiy va aholi tarixiy geografiyasi nuqtai nazaridan tadqiqotning eng muhim manbalarini mazmun jihatidan besh guruhga: 1) Umumtarix tipida yaratilgan manbalar; 2) Lokal tarixiy asarlar; 3) Biobibliografik lug‘atlar va nasabnomalar; 4) Tarixiy geografik asarlar; 5) Arxeologik materiallarga ajratib tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

1. Umumtarix tipida yaratilgan manbalar. Ibn al-Qutayba qalamiga mansub “al-Maarif”, Xalifa ibn Xayyotning “Tarix”, Balazuriyning (820–892) “Futuh al-buldon”, Dinovariyning (828– 96) “Kitob al-axbor at-tivol”, Ya’qubiyning (IX asr) “Ta’rix”, Tabariy (839–923) qalamiga mansub “Tarixi ar-rusul va-l-muluk”, Mas‘udiyning (896–956) “Muruj az-zahab va ma‘odin al-javhar”, Ibn A‘sam al-Kufiyning (IX–X asrlar) “Kitob al-futuh”, Utbiy (961–1037)

---

[18] Атаходжаев А. Илк ўрта асрларда Фарғонанинг халқаро муносабатларда тутган ўрни // “Фарғона водийси тарихи муаммолари” республика илмий анжумани материаллари. – Наманган, 2012. – Б. 93-95 (keyingi o‘rinlarda – Атаходжаев А. Илк ўрта асрларда Фарғонанинг...).; Атаходжаев А. Фарғона подшоси Алутарнинг илк ўрта асрлар тарихидаги ўрни // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги иккинчи республика илмий анжумани. –Фарғона, 2012. – Б. 97-101, 148-154.; Атаходжаев А. Эфталийлар ҳукмронлиги даврида Фарғонанинг дипломатик алоқалари // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги учинчи республика илмий анжумани. – Фарғона, 2014. – Б.156-161 (keyingi o‘rinlarda – Атаходжаев А. Эфталийлар ҳукмронлиги даврида...).

[19] Fedorov M. Farghana under the Samanids (According to the Data of Numismatics) // Journal of Persian studies. Iran, Vol. 42 (2004). – P. 119-129., Fedorov M. The date of the transition of Akhsīkat to the Samanid appanage ruler Muḥammad b. Asad // Journal of Persian studies. Iran, Vol. 46 (2008). – P. 361-364., Давидович Е.А. Ферганские Саманиды по нумизматическим данным // ЭВ. Вып. XI. – М.–Л., 1956. – С. 14–26.; Давидович. Е.А. Владетели Насрабада (по нумизматическим данным) // Краткие сообщения ИИМК. Вып. 61. – Москва, 1956. – С.107-114 (кейинги ўринларда - Давидович Е.А. Владетели Насрабада); O‘sha muallif. Давидович Е.А. Монеты Ферганы как источник для характеристики института феодальных пожалований за службу в Средней Азии в X в. // Письменные памятники Востока. Историко-филологические исследования. – Москва, 1969. – С. 110-141. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Авт. дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2004. – 24 с.

[20] Тизунгаузен В.Г. О саманидских монетах. ТВОРАО, ч. I. – СПб., 1855. – С. 1–238.

[21] Тизунгаузен В.Г. О саманидских монетах. – С. 83–238.

tomonidan yozilgan “Tarixi Yaminiy”, Ibn al-Asirning (1160–1234) “Al-komil fi-t-ta’rix”, Bal’amiyning “Tarjumai tarixi Bal’amiy”, Juvayniy tomonidan bitilgan “Tarixi Jahonkushoy”, Rashididdinning “Jome’ at-tavorix”, Mirxondning “Ravzat us-safo” asarlarini kiritishimiz mumkin[22].

Xozirgi kungacha to‘liq yetib kelgan, Farg‘ona haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan birinchi umumtarix tipida yozilgan tarixiy asar Xalifa ibn Hayyotning 232/840–841-yillardan keyin tugallangan “Ta’rix Xalifa ibn Hayyot” asaridir[23]. Dissertatsiyada foydalanilgan 1968-yilgi Najaf nashri kirish qismidan iborat bo‘lib, Bag‘dod universiteti tarix va yodgorliklar fakulteti dekani Solih Ahmad Ali “Ta’rix Xalifa ibn Hayyot” asari qo‘lyozmasi Qohirada (Qohira Milliy kutubxonasi 199-raqami ostida) ekanligini bildiradi. Nashrni “Ta’rix Xalifa ibn Hayyot”ni o‘rgangan Akram Diyo‘ al-Amr Ya’ud tayyorlagan.

2. Lokal tarixiy asarlar. Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Gardiziyning “Zayn ul-axbor” asarlarini kiritishimiz mumkin. XV asrga kelib, Movarounnahr tarixiga bag‘ishlangan asarlar asosan davlat tili vazifasini bajargan fors (tojik) tilida yoziladigan bo‘ldi. Oldingi davrlarda arab tilida yozilgan qator tarixiy asarlar ham fors tiliga tarjima qilina boshlandi. Arabchadan fors tiliga o‘girilgan dastlabki tarixiy asar X asrda yashab o‘tgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning (899–959) ning “Buxoro tarixi” nomli kitobi edi. Bu asar 944-yilda yozilib, 1128-yilda Abu Nasr Ahmad al-Quboviy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. U “arab tilidagi nusxada so‘zlangan keraksiz va o‘qiganda kishi tabiatida malollik orttiradigan narsalar”ni qisqartirib yuboradi. 1178–1179-yillarda Muhammad ibn Zufar ibn Umar fors tilidagi tarjimani ikkinchi marotaba qisqartirib bayon etgan. Asarni bizning zamonamizgacha yetib kelgan barcha nusxalarida 1178–1220-yillar voqealari ham bayon qilinadi[24].

3. Biobibliografik lug‘atlar va nasabnomalar. Ushbu manbalar guruhiga al-Faraxidiyning “Qomus al-ayn”, Ibn Xallikonning “Vafoyot al-a’yon va anbau al-zamon”, Abu Sa'id Abulkarim Muhammad as-Sam’oniy qalamiga mansub “Kitob al-ansob”, Najmuddin Umar ibn Muhammad an-Nasafiyning “Kitob al-qand fi zikri ulamoyi Samarqand”, Jamol Qarshining fors tilidagi “Mulhakat as-surah” (Surah lug‘atiga qo‘shimcha) asarlarini keltirishimiz mumkin[25].

---

[22] Bal’ami. Chronique de Abou-Djafar-Muhammed-ben-Jarir-ben-Jazid Tabari, traduite sur la version persane d’Abou Ali Mo’hammed Bel’ami, d’apres les manuscrits de Paris , de Gotha, de Londres et de Canterbury par H.Zotenberg, t I–IV, Paris, 1867–1874; Бал’амий. تاریخ طبری. ЎзР ФА ШИ, қўлёзма. Инв. №6095, б.392–393, қўлёзма. Инв. №831, б.359–360, қўлёзма. Инв. №33, б.338–389, эски ўзбек тилидаги инв. №9470, 427а–428б, Historie des Samanides par Mirkhond. Texte persan, traduit et accompagne de notes criticis, historiques et geographiques par M.Defremery. – Parij, 1832. – 312 p.

[23] Та'рих Халифа Ибн Хаййат хаккакаху ва каддама лаху Акрам Дийа' ал-Омари. Дж. 1-2. Ан-Наджаф, 1386/1968. I. – P. 410.

[24] Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. – Б. 85.

[25] Ibn Khallikan. Kitab wafayat al-aiyan. Vol.1. – P. 155., Ibn Khallikan. Kitab wafayat al-aiyan. – P. 313-314, Самъоний, Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур ат-Тамимий. Китоб ал-Ансоб. Таржимонлар ҳожи Абдулғафур Раззоқ Бухорий, Комилжон Раҳимов. –Тошкент, 2017. – Б. 142, Насафий, Нажмиддин Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад. Ал-Канд фи зикри уламои Самарқанд / Араб тилидан таржима Усмонхон Темурхон ўғли ва Бахтиёр Набихон ўғлиники. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – 304 б.; Маҳмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. I том. – Тошкент, 1960.; Абу-л-Фадл ибн Мухаммад Джамал ад-Дин Карши. Мулкахат ас-сурах (пер с персидского Р.Ш. Шарафутдиновой) // Материали по истории Средней и Центральной Азии X–XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 107, Шаҳристоний. Abu-’l-Fath’ Muh’ammad asch-Schahrastan’is Religionspartheien und philosophen-Schulen. Zum ersten Male vollstandig aus

4. Tarixiy-geografik asarlar. Tadqiqotchilar tomonidan foydalanilgan materiallar, asosan, geografik xususiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan. Biroq bu manbalarning tahlili yoki ularning qanday usullar bilan yaratilgani tadqiqotchilar, arxeologlar va tarixchilarni unchalik qiziqtirmagan – ularni, asosan, mazkur materiallarning o‘zi, ya’ni undagi ma’lumotlar jalb qilgan. Uzoq vaqt davomida arab dunyosining chekkasida joylashgan va undan tashqarida bo‘lgan hududlar o‘rta asr musulmon mualliflarining e’tiboridan ko‘pincha chetda qolgan. Bu holat, ayniqsa, geografik janr vakillarining asarlari uchun ham xos bo‘lgan[26].

5. Arxeologik materiallar. Arab manbalari ko‘pincha tavsifiy xarakterga ega bo‘lib, moddiy madaniyat tafsilotlarini yetarli darajada ochib bermaydi. Bu yerda arxeologik manbalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular yozma manbalardagi ma’lumotlarni to‘ldiradi va ba’zan tuzatadi. Farg‘ona vodiysidagi asosiy arxeologik yodgorliklar (Axsikent, Quva, O‘sh va boshqalar) stratigrafik qatlamlar, moddiy buyumlar (sopol, metall, tangalar, me’moriy qoldiqlar) va radiokarbon tahlillari orqali IX–XIII asrlarning tarixiy geografiyasini aniqroq yoritishga imkon beradi.

Mavzuga oid mavjud izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, IX–XIII asrlar arab tilli manbalarda Farg‘ona vodiysining tarixiy geografiyasi bilan bog‘liq masalalar hali-hanuzgacha milliy tarixshunosligimizda to‘liq va mukammal tarzda o‘rganilmagan. Bu davrga oid manbalar va arxeologik ma’lumotlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni umumlashtirgan, tizimli ravishda tahlil qilgan va tarixiy-geografik jihatdan kompleks yondashuv asosida tadqiq etgan fundamental

---

dem Arabischen ubersetzt und mit erklarenden Anmerkungen versehen von T.Haarbrucker, T. I-II, Halle, 1850–1851, Qifti, Ali ibn Yusuf. Tarih al-hukama. Auf Grund der vorarbeiten Aug.Muller’s hereausgegeben von Pro. Dr. Julius Lippert, Lehrer am seminar fur orientalische sprachen in Berlin. Leipzig: Dieterich’sche verlagsbuchhannlung, 1903. – P. 536, Фихрист. Kitab al-fihrist. Mit Armenkungen hrsg. fon G.Fluger, nach dessen Tode besorgt von J.Roidiger und A.Muller. Bd. I: den Text endhaltend, von J.Roidiger, Leipzig, 1871; Bd. II: die Anmenkungen und Indices endhaltend, A.Muller, Leipzig, 1872, Ҳожи Халифа. كشف الظنون عن اسامى الكتب والفنون. Lexicon bibliographicum et encyclopaedicum a Mustaa Ben Abdallah Katib Jelebi dicto et nomine Haji Khalfa celebrato compositum. Ad codicum Vindobonensium, Parisiensium et Berolinensis fedem primum edidit, latine vertit et. commentario indicibusque instruxit G.Flugel, t. I, Leipzig, 1835; t. II, Leipzig, 1837; t. III, Londom, 1842; t. IV, London, 1845; t. V, London 1850; t. VI, London, 1852; t. VII, (Indices), London, 1858.

[26] Das Kitab Surat al-ard des Abu Ga'far Muhammad ibn Musa alHuwarizmi/Hrsg. nach handschriftlichen Unikum der Bibliotheque de L' Universite et Regionale in Srassburg (Cod. 4247) Hans von Mzik. Leipzig, 1926, Ибн Хордатбех. Книга путей и стран. Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Н.Велиховой. Баку. Элм, 1986. – 277 с., Яъкубий. Kitab al-buldan. Kitab al-a’lak an-nafisa YII auctore Abu Ali Ahmed ibn Omar ibn Rosteh et Kitab al-boldan auctore Ahmed ibn Abu Jakub ibn Wadhih al-Kitab al Yakubi. Ed. M.J. De Goeje, ed 2, Lungduni Batavorum, 1892, Macoudi, Les prairies d'or, texte arabe et traduction franc. C. Barbier de Meynard et Pavet-de-Courteille, Paris, 1861-77,1, 10 sq., Al-Makdisi. Descriptio imperii moslemici auctore Schamso’d-din Abu Abdullah Mohammed ibn Ahmed ibn abi Bekr al-Banna al-Basschari al-Mokaddasi. Ed. M. J. de Goeje, Lungduni Batavorum, 1877; ed. 2: 1906. – 514 p., Избранные сочинения. Канон Мас'уда. Абу Райхан Беруни. Т. V. – Ташкент, 1973, Al-Idrisi. Istituto Universitario Orientale di Napoli Istituto Italiano per il Medio ed Estremo Oriente. Al-Idrisi (Abu 'Abdallh Muhammad ibn Muhammad ibn Abu 'Abdallh ibn Idris al-Hammudi al-Hasan) Opus Geographicum, sive «Liber ed eorum delectationem qui terras peragrare studeant» consilio et auctoritate E. Cerulli, F. Gabrieli, G. Levi Delia Vida, L. Petech, G. Tucci una cum aliis ediderunt A. Bombaci, U. Rizzitano, R. Rubinacci, L. Veccia Vaglieri Fasciculus sextus. Neapoli-Romae, a. DMCMLXXVI. Prostat apud E.J. Brill, Lugduni Batavorum. 1976, Ибн Хаукал. Китаб сурат ул-арз (пер. с арабского О. Б. Фроловой) // Материали по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 18-20, [26] Jacut's geographishes Worterbuch aus den Handschriften zu Berlin, St. Petersburg, Paris, London und Oxford hrsg. von F. Wustenfeld. I-VI, Leipzig, 1866–1870, Худуд ал-алем. Рукопись Туманского. С введением и указателями В.В.Бартольда. – Ленинград, 1930. – 610 с; Ҳудуд ул-олам / Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О.Бўриев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 59 б.

ilmiy ishlar deyarli yo‘q. Aksariyat tadqiqotlarda bu hudud bo‘yicha ma’lumotlar fragmentar holatda, alohida masalalar doirasida yoritilgan. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysining o‘rta asrlardagi siyosiy-administrativ bo‘linishi, iqtisodiy va madaniy markazlari, tabiiy-geografik omillarning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri kabi masalalar ilmiy tarixiy kontekstda chuqur o‘rganilishga muhtoj. Shu sababli bu mavzu zamonaviy tarixshunoslik talablariga javob beradigan yondashuvlar orqali qayta tahlil qilinishi lozim. O‘rta asrlar tarixi davri tarixiy manbalarida Farg‘ona vodiysi haqidagi ma’lumotlarning kamligi va tarqoqligi mavjud ma’lumotlarga nisbatan tanqidiy yondashuvni, ulardan samarali foydalanishni hamda qo‘shni hududlar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan ham qiyosiy tarzda foydalanishni talab etadi.

Dissertatsiyaning **“Arab manbalarida IX-XIII asrlar Farg‘ona vodiysining tabiiy sharoiti va boyliklari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Farg‘ona vodiysining IX–XII asrlardagi tabiiy sharoiti, iqlimi, daryolari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ularni o‘rganish jarayonida manbalardagi ma’lumotlarni bir-biriga solishtirish va qiyoslash yo‘li orqali tadqiq qilingan.

Farg‘ona vodiysi tabiiy sharoiti, iqlimi, tog‘lari, daryolari to‘g‘risida arab tilida yaratilgan tarixiy manbalarda ma’lumotlar uchramaydi, keyinchalik arab geografik adabiyoti shakllanishi va geografik mazmundagi asarlar yaratilishi bilan vodiy tabiiy sharoiti, iqlimi, tog‘lari, daryolari haqidagi ma’lumotlar ham vujudga keladi.

Arab manbalariga ko‘ra, Farg‘ona beshinchi iqlimda joylashgan[27]. Beshinchi iqlim; Sharqiy turklar va Ya’juj yurtidan boshlanib, Qoshg‘ar, Bolasog‘un, Rasht, Farg‘ona, Isfijob, Shosh, Usrushona, Samarqand, Buxoro, Xorazm yerlaridan o‘tib, Kaspiy dengizidan g‘arbga Bobu’l-Abvobgacha cho‘zilgan[28]. Boburning ma'lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona beshinchi iqlimda joylashgan. Farg‘ona sharqda Qashg‘ar, g‘arbda Samarqand va janubda Badaxshon bilan chegaradosh baland tog‘lar bilan o‘ralgan. G‘arbda tog‘lar yo‘q, u yerda faqat Samarqand va Xo‘jand joylashgan. Shimolda Olmaliq, Olmatu, Yangi/O‘tror kabi shaharlar bor[29]. Boshqa bir ma'lumotlariga ko‘ra, mintaqa Tibet shaharlaridan boshlanib, g‘arbda Farg‘ona, Usrushona, Samarqand, Buxoro va Balx yo‘nalishlarida davom etgan to‘rtinchi iqlimda joylashgan[30].

X asr islom geograflari Farg‘onani Movarounnahrning sharqida va tog‘ tizmalari qiyaliklarining chap tomonida joylashgan boy hudud sifatida qayd etadilar. Sharqiy-g‘arbiy yo‘nalishda Turkiston yo‘lining o‘ng tomonida va Xurosonning sharqida joylashgan Farg‘ona Yoqutning fikricha Turkiston bilan chegaradosh katta shahar va keng o‘lkadir[31]. Farg‘ona Movarounnahrning X

[27]Qadimgi geograflar Ekvator shimolini Ekvatordan Shimoliy qutbgacha yetti iqlimga (belbog‘) bo‘lib, har bir iqlimni sharqdan g‘arbga qarab hisoblaganlar. Qarang: Şeşen, Türk Ülkeleri. – S.VIII.

[28]Mustawfi of Qazwin, Hamdallah / The geographical part of the Nuzhat al-Qulub (composed in 740/1340) / Ed. by G. le Strange (GMS). Leiden – London, 1915. – P. 474; Şeşen R. İslâm Coğrafyacılarına Göre Türkler ve Türk Ülkeleri. – Ankara, 2001. – S. 205.

[29] Бобур. Бобурнома. – Б. 3.

[30] مجمل التواريخ و القصص: تاليف سال ٥٢٠ هجري/ تصحيح ملك الشعراء بهار؛ بهمت محمد رمضاني. 1317. – B. 480.

[31] Yoqut. Kitab al-buldon. – B. 253; Kitapçı Z. Türkistan’da İslâmiyet ve Türkler. – Konya: Nur Basımevi, 1988. – S. 163. Farg‘ona ham shahar sifatida, ham Movarounnahning bir qismi sifatida faqat Yoqut asarida uchrayda.

asrdagi boshqa hududlariga qaraganda kengroq hamda Farg‘onadan ko‘p qishloqlar bo‘lgan boshqa joy yo‘q edi. Ba'zida qishloqning chegaralari deyarli bir marhalaga (farsax) etib borardi[32]. Bartold oxirgi jumlani “ba’zi qishloqlar bir-biridan bir kunlik masofada joylashgan”, deb izohlaydi[33].

Ma‘lumki, Sirdaryo “Xo‘jand daryosi” kabi sug‘orilgan aholi punktlari nomi bilan ham atalgan[34]. Bu nom mo‘g‘ullar tomonidan qabul qilingan[35]. Mo‘g‘ullar istilosidan oldingi islom manbalarida, ayniqsa daryoning quyi oqimi “Nahr ush-Shosh” deb ataladi. O‘g‘uzlar esa o‘z yerlarini janubdan shimolga kesib o‘tgan daryoning quyi oqimini “O‘g‘uz” (daryo) deb atashgan. Agar “Sir” so‘zi keng qo‘llanilganda edi, u davr adabiy asarlarida ham, Sirdaryo haqida batafsil ma’lumot beruvchi geografik asarlarda ham albatta uchragan bo‘lar edi. Natijada “Sir” so‘zini adabiyotga mo‘g‘ullar olib kirgan, deyish mumkin. Darhaqiqat, XVI asr boshlarida eronliklar Sirdaryoni “Ob-ı Xo‘jand (Xo‘jand suvi)”, mo‘g‘ullar va o‘zbeklar “Ob-ı Sir (Sir suvi)” deb atashgan[36]. Klyashtorniy esa “buyuk suv”, “buyuk daryo” ma’nosini bildiruvchi Sirdaryo so‘zi saklar davriga oid eski so‘z bo‘lib, ayniqsa daryoning quyi/janubiy-g‘arbiy qismiga tegishli ekanligini ta’kidlaydi[37]. Arab tilli manbalarda Farg‘ona vodiysi tarixiy geografiyasiga oid dastlabki ma’lumotlar Al-Xorazmiy “Kitob surat al-ard” asarida tilga olinadi. Al-Xorazmiy Farg‘ona vodiysining bizni qiziqtirgan yirik daryosi – Sirdaryoni tasvirlab bergan. Yerdagi koordinatalarni hisoblashning ma’lum bir usuli mavjud bo‘lganligi sababli shahar va tog‘larning koordinatalarini aniqlashda qiyinchiliklar sezilmaydi. Lekin al-Xorazmiy Sirdaryo manbasining koordinatalarini qanday aniqlaganligi bilan bog‘liq vaziyat boshqacha. Sababi Sirdaryo (Norin daryosi) manbasiga alohida koordinatalarni o‘lchash uchun yetib borganligi aniq emas. Al-Xorazmiy Sirdaryoning (nahr tavil) batafsil koordinatalarini keltiradi. Al-Xorazmiy daryoning boshlanish koordinatalarini – 44° 5' uzunlik, 97° 20' kenglik, yerdagi koordinatalarini esa – 41° 84' / 77° 60'[38], uning oqimi koordinatalarini 46° 5' uzunlik va 117° 0’ kenglik, shuningdek, mos ravishda 50° 30' va 107' bilan daryo xazarlar shahri (nomsiz) yaqinidan o‘tadi va uning qo‘shilishi koordinatalari 41° 30' uzunlik va 90° 5' kenglikda, mos ravishda, yer yuzida – 46° 11/60 ° 77' kabi raqamlarda yoziladi. Bu daryo havzasi tavsifining to‘liq tarjimasi “Muhammad al-Xorazmiy” asarida keltirilgan[39].

Arab tilidagi asarlarda Sirdaryoning asosiy manbai Qoradaryo, ikkinchisi esa Norin daryosi (Haylom/Hayrlom) deb ataladi[40]. G‘arb geograflari Farg‘onaning shimoli-sharqida joylashgan Norin va Yettisuvni daryoning asosiy manbai sifatida qabul qilishgan. Mahalliy aholi esa mintaqaning janubi-sharqidagi Qoradaryoni

---

[32] Ibn Haukal. – P. 512-514; al-Istakhri. – P. 333; Ёқут ал-Ҳамавий. Мужам ал-булдон. II. – B. 253.
[33] Бартольд В.В. Туркестан. – С. 125.
[34] Бобур. Бобурнома. – Б. 4; al-Masudi. Kitab at-tanbih wa-l-ishraf / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 8. Lugduni Batavorum: E.J.Brill, 1967; Barthold V. Sir-Deryâ // İA. X. – İstanbul, 1966. – S. 568.
[35] Sümer F. Eski Türklerde Şehircilik. – Ankara, 1994. – S. 87.
[36] Sümer F. Eski Türklerde Şehircilik. – Ankara, 1994. – S. 87.
[37] Sümer F. Eski Türklerde Şehircilik. – Ankara, 1994. – S. 87.
[38] World atlas Deluxe. Rand Mcnally. New Millenium. Серийный номер NM 9812 RMIH 901. Copyright © 1998 Rand & Co.
[39] Булгаков П.Г., Розенфельд Б.А., Ахмедов А.А. Мухаммед ал-Хорезми. – Москва. 1983. – С. 207.
[40] Ial-Istakhri. – P. 334, Ibn Haukal. – P. 514; Бартольд В.В. Туркестан. – С.169.

Sirdaryoning yuqori tarmog‘i deb bilishgan. Nahr Xurshob (نهر خُرشاب) – “Hudud al-olam” asariga ko‘ra, Xurshob daryosi Buttamon orqasidagi tog‘ning shimoliy tomonidan boshlanib, Xurshob nomli shahar yonida Uzgand daryosiga qo‘shiladi[41]. Bu daryo hozirda ham Qurshob deb ataladi[42]. “Hudud al-olam” asarida Farg‘ona shaharlari tavsifidan keyin Xushkob (خشكاب) nomli shaharcha ham qayd etilgan. Garchi uning ekinzorlari ko‘p bo‘lsa-da, aholisi kam sonli bo‘lgan[43].

Nahr Urast (نهر اورست) – ayrim qo‘lyozma nusxalarda va “Hudud al-olam” asarida bu daryo Nahr Ush (نهر اوش), ya’ni O‘sh daryosi deb atalgan[44]. Farg‘ona vodiysida Urast nomli rustoq (ma’muriy-hududiy birlik) ham mavjud bo‘lgan[45]. Hozirgi kunda bu daryo Oqbo‘ra daryosi deb ataladi[46].

O‘rta asrlarda Farg‘onada tog‘-kon sohasi ham taraqqiy etgan bo‘lib, xitoy va arab manbalarida turli ma’lumotlar saqlanib qolgan. “Suyshu”da keltirilgan quyidagi satrlar ham tog‘-kon sohasining taraqqiy etganligini ko‘rsatadi: “...Bu yerda (Farg‘onada) simob, oltin va temir ko‘p”[47]. Arab manbalarida Farg‘onaning tabiiy boyliklari to‘g‘risida hikoya qilinib, Farg‘onadagi Naqod, Axsikat va boshqa [shaharlar]ning atroflarida oltin va kumush konlari mavjudligi aytiladi. Suj shaharlarida simob qazib olinadi. Yuqori Nasya yonida qatron, toshpaxta, oltin, kumush, feruza [toshi] sariq mis va qalay konlari bor. Asbarada qora toshlardan [iborat] tog‘ bor bo‘lib, bu [toshlar] ko‘mirga o‘xshab yonadi, ularning kuli bilan kiyimlar oqartiriladi. Asbarada rang-barang tog‘lar bor. Ularning bir qismi qop-qora, boshqasi yorqin qizil, uchinchisi to‘q sariq. Farg‘ona tog‘larida tarxun buta o‘simliklari o‘sadi, uning urug‘lari ziravor sifatida ishlatiladi va barcha mamlakatlarga olib ketiladi, shuningdek, Kulkana [nomli o‘simlik o‘sadi]. Bu yerdan [boshqa] bu [o‘simlik] hech qayerda yo‘q. Bu mamlakatda va turklar viloyatida ko‘p miqdorda novshadir olinadi[48].

Movarounnahrning sharqiy va shimoli-sharqini tashkil etgan Farg‘ona, garchi o‘rta qismi cho‘l bo‘lsa-da, O‘rta Osiyodagi eng unumdor yerlardan biriga ega edi. Farg‘onada uzum, yong‘oq, olma, atirgul, binafsha, ekinlarning ko‘plab navlari ekilgan, xushbo‘y yovvoyi o‘simliklar va yovvoyi pistalar yetishtirildi[49], bu xo‘jalik hayotida dehqonchilik va chorvachilikni birinchi o‘ringa olib chiqdi. Taxminlarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi ishlari vodiyda mill.avv. VII asrdan beri amalga oshirilgan.

Sirdaryoga quyiladigan ko‘pgina daryolarning suvi faqat qishda unga yetib borardi. Bular xalq tomonidan obod qilinib, qumloq yerlar ekinzorlarga, tokzorlarga, bog‘larga aylantirildi. Farg‘ona tog‘lari atirgullar, binafshalar va turli

[41] Minorsky. Hudud. – P. 72 (9 b).
[42] Bartold. Туркестан... – С. 216.
[43] Minorsky. Hudud. – P. 23б; Ибн Ҳавқал. Китаб сурат ул-ард. – Б. 277.
[44] Ibn Haukal. – P. 512 (1); Minorsky, Hudûd. – P. – P. 72 (9 б).
[45] Ibn Haukal. – P. 513, 514.
[46] Bartold. Туркестан... – С. 216; Бартольд В.В. Сандабиль. Статьи из Энцик лопедии ислама // Сочинения в 9 томах. Т. 3. Работы по исторической географии. – М., 1965. – С. 212.
[47] سۆينامه. «24 تارىخ» تنكى غەربىي يۇرت تارىخىغا ئائىت ماتېرىياللار. شىنجان خەلق نەشرىياتى. 2013. 559-س.
[48] Ибн Ҳавқал. Китаб сурат ул-ард. – Б. 82.
[49] Ёқут ал-Ҳамавий. Мужам ал-булдон. IV. – В. 253.

gullar bilan qoplangan edi[50]. Farg‘onaning unumdor va malakali qishloq xo‘jaligi yerlari u yerdagi qulay iqlim va tabiiy sharoitga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mutanosib edi.

Farg‘ona yerlari boy foydali qazilma konlariga ega edi. Asosiy yo‘lning janubida Isfara, Aval va Nekad deb nomlangan tog‘li hududlar bor edi. Isfara qisman tekislikda, qisman tog‘larda joylashgan edi. Ibn Havqalning qayd etishicha, bu mintaqadagi tog‘larning ba’zilari qop-qora, ba’zilari qip-qizil, ba’zilari esa och sariq rangda. Istaxriy asarida Farg‘ona vodiysi tabiiy boyliklari hamda o‘simlik dunyosi haqida muhim ma’lumotlar bor. Jumladan, “Bu tog‘ning [G‘ur tog‘i] boshidan oxirigacha kumush va oltin ma’danlari bor. Ko‘pi xirxizga yaqin joyidan Movarounnahrning Farg‘ona va Shoshgacha bo‘lgan qismidadir. Bu ma’danlar ko‘p joylar Islom yurtining Banjhir va unga tegishli hududidadir”[51].

“Hudud ul-olam” asarida “Farg‘ona tog‘lari oltin, kumush, mis, qo‘rg‘oshin, navshodir, simob, yonartosh, poyzahr toshi, magnit toshi va [turli] minerallarga boy: u yerda tabarxun va antiqa dorilar tayyorlashda ishlatiladigan giyohlar bor[52]. ... Chadg‘al – Farg‘onadagi nohiyat, tog‘-daralarda joylashgan: shaharchalari bor, qishloqlari ko‘p. U yerda qo‘rg‘oshin qazib olinadi”[53] kabi tog‘-kon sohasiga tegishli muhim ma’lumotlar joy olgan.

X–XII asrlar Farg‘onada shahar madaniyatining eng rivojlangan davri bo‘lgan. X asrda yashagan arab geograflari al-Istaxriy va Ibn Havqalning yozishicha, Movarounnahrda kattaligi jihatdan Farg‘ona qishloqlariga yetadigani bo‘lmagan. Ba’zan aholining zichligi, shuningdek chorva va yaylovlarning ko‘pligidan qishloqlarning hududlari 1 kunlik yo‘lni tashkil etgan. Bu davrda Farg‘ona aholisining bir qismi o‘troq, qolganlari esa ko‘chmanchi holda yashaganligi ma’lum. Ushbu ikki xo‘jalik-madaniy tipga mansub etnoslar doimiy ravishda o‘zaro iqtisodiy-madaniy aloqada bo‘lganlar. Dehqon jamoalar va chorvador aholi o‘zlarining xo‘jalik-madaniy va etnografik xususiyatlarini saqlagan holda o‘zaro aloqalar natijasida umumiy jihatlarga ham ega edilar[54].

Al-Muqaddasiy keltirgan ma’lumotga ko‘ra, Farg‘onada taxminan 40 ta shahar va qishloqlar bo‘lib, ularning har birida jome masjidlari bo‘lgan. Shaharlar joylashuviga ko‘ra 3 ta hududga bo‘lingan. Bir guruh shaharlar Norin va Qoradaryo oralig‘idagi Miyon Rudon tumanida, yana bir guruh shaharlar Sirdaryoning shimolidagi tumanlarda, uchinchi guruh shaharlar vodiyning janubiy qismida, ya’ni Turkiston tog‘larining shimoliy yonbag‘rlaridagi Nasoy tumanida joylashgan. Manbalarda yirik shaharlar madina, o‘rtacha kattalikdagi shaharlar esa balda deb atalgan. Vodiydagi eng katta shaharlar Axsikat, Qubo va O‘sh bo‘lib, ulardan Axsikat o‘rta asrlarda Farg‘onaning poytaxti bo‘lgan. Maydoni jihatdan ikkinchi shahar hisoblangan Qubo alohida tumanning markazi bo‘lgan. O‘sh qadimgi shahar o‘rnida rivojlanib, egallagan maydoniga ko‘ra vodiydagi uchinchi shahar hisoblangan.

---

[50] Ibn Haukal. – P. 474.
[51] Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. – Б. 117.
[52] Minorsky. Hudûd. – P. 117.
[53] Ҳудуд ул-олам. – Б. 15.
[54] Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик.– Б. 119.; Ибн Ҳавқал. Китаб сурат ул-ард. – Б. 82.; Al-Makdisi. Descriptio imperii moslemici auctore Schamso’d-din Abu Abdullah Mohammed ibn Ahmed ibn abi Bekr al-Banna al-Basschari al-Mokaddasi. Ed. M. J. de Goeje, Lungduni Batavorum, 1877: ed. 2: 1906.

Al-Xorazmiy asarida keltirilgan Sirdaryoning boshlanish nuqtasi koordinatalariga aniqlikning yetishmasligi sababi sifatida, geografiya fani hali musulmon sharqida shakllanish bosqichida ekanligini, bu asar esa ushbu bosqichda yaratilgan asarlarning dastlabkisi ekanligini aytishimiz mumkin. Beruniy asarlarida ham Sirdaryo haqida ma'lumotlar keltirilsa-da, uning koordinatalari ko'rsatilmagan.

Farg'ona vodiysining iqlimi, tabiiy sharoiti, daryo, ko'l va ariqlari haqida keltirilgan ma'lumotlar arab manbalarida batafsil yoritilgan bo'lib, bu manbalardagi ma'lumotlarning ayrimlari bir-birini takrorlasa, ayrimlarida esa butunlay boshqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Arab manbalarida IX–XIII asrlar davrida Farg'ona vodiysi tabiiy resurslarga boy, iqlimi mo'tadil va unumdor yer-suvga ega hudud sifatida tavsiflanadi. Ushbu yozma manbalarda Farg'onaning tog'lari, daryolari, serhosil dalalari, bog'lari va o'rmonlari batafsil tasvirlangan. Ayniqsa, vodiyning qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlari, turli ekinlar, mevali daraxtlar, dukkakli va g'alla mahsulotlari yetishtirilganligi, zira, za'faron, yantoq, paxta, uzum, shaftoli, yong'oq, olma kabi madaniy o'simliklar keng tarqalganligi qayd etilgan.

Arab mualliflari Farg'onani suv manbalariga boy, serunum va iqlimi qulay hudud sifatida baholaydilar. Jumladan, al-Istaxriy, Ibn Havqal va al-Muqaddasiy asarlarida bu hududning suv manbalari – ayniqsa, Sirdaryo hamda tog' daryolarining ahamiyati, sug'orish inshootlari, ariqlar va yerlarni sug'orishdagi ilg'or tajribalar alohida e'tirof etilgan. Ular Farg'onaning tabiiy boyliklari orasida temir, tuz, neftga o'xshash tabiiy mahsulotlarni ham sanab o'tishadi.

Farg'onaning o'simlik dunyosi nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va tibbiy ahamiyatga ham ega bo'lgan. Mahalliy dorivor o'simliklar, attorlik va oziq-ovqat mahsulotlari Yaqin Sharq va boshqa mintaqalarga eksport qilingan. Arab mualliflari ushbu boyliklarni Farg'onaning umumiy taraqqiyoti, savdo-iqtisodiy aloqalari va madaniy yuksalishining asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatganlar.

Shu tariqa, IX–XIII asr arab yozma manbalari Farg'ona vodiysi haqida chuqur, boy va rang-barang ma'lumotlar berib, bu hududning tabiiy resurslar va o'simlik dunyosi jihatidan o'rta asrlar Sharqidagi eng muhim agrar-madaniy mintaqalardan biri bo'lganini yaqqol tasdiqlaydi.

Farg'ona vodiysi qadimdan ko'p millatli va ko'p madaniyatli hudud bo'lgan. Arxeologik topilmalar, xususan, qadimgi tangalar va yozma manbalarda bitilgan hukmdorlar nomlari ushbu hududning etnik tarkibi haqida muhim ma'lumotlar beradi. Tangalar ustidagi yozuvlar orqali farg'onalik hukmdorlarning ismlari turli til qatlamlariga mansubligini ko'rish mumkin. Jumladan, ayrim hukmdorlarning nomlari eroniy til xususiyatlarini aks ettirgan bo'lsa, boshqalari turkiy onomastika namunalaridir. Bu holat Farg'ona aholisi orasida eroniyzabon guruhlar bilan bir qatorda turkiy tilli etnoslar ham mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Tadqiqot ishining **"IX–XIII asrlarda Farg'ona vodiysining hududiy tuzilishi"** deb nomlangan uchinchi bobida Yuqori Nasyo (Nasyo al-Ulyo), Quyi Nasyo (Nasyo al-Suflo) va Sirdaryo shimolidagi shaharlar to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Nasyo yerlari, umuman olganda, Sirdaryoning janubiy qismlarini tashkil qiladi. Bu Farg'onaning eng obod, rivojlangan va xavfsiz joyidir.

Nasyo iqtisodiy rivojlanishi, urbanizatsiya va aholi zichligi, hududning Buxoro, Samarqand kabi hududlarga yaqinligi, unumdor yerlarga boyligi va musulmon bo‘lmagan turk tahdidining kamroq sezilishi bilan bog‘lash mumkin. Nohiya ikki qismga Yuqori va Quyi Nasyoga bo‘lingan.

Yuqori Nasyo (Nasyo al-Ulyo). Farg‘onaga Xo‘janddan kirsangiz, birinchi nohiya – Yuqori Nasyodir. So‘x, Vonkas (Vonkat), Xuqand va Rishton bu joyning aholi manzilgohlari hisoblanadi[55].

Quyi Nasyo (Nasyo al-Suflo). Quyi Nasyo Yuqori Nasyoning janubida va unga tutashgan. Xo‘jand, Kand, Marg‘inon, O‘sh, Zandaromish, Qubo, Avval, Naqod, Isfara, Miskan, Andijon, Medva, Lamish, Urest, Najrank va Ushtikan bu yerda joylashgan aholi punktlaridir.

Farg‘ona vodiysi bu yerda faqat tabiiy yo‘l orqali boshqa viloyat va shaharlar bilan bog‘langan bo‘lib, dushmanlar barcha fasllarda Farg‘onaga faqat shu nuqtadan kirishlari mumkin edi[56]. Shu boisdan ham asosan sharqiy va Markaziy Osiyo qabilalari va davlatlari mintaqada hukmronlik o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi.

Miyon Rudan (ba’zida manbalarda Miyanrudan shaklida uchraydi) – IX–XIII asrlarda Farg‘ona vodiysining muhim hududiy birliklaridan biri bo‘lib, u o‘z nomini “ikki daryo orasidagi yer” ma’nosini bildiruvchi toponimdan olgan. Bu hudud ikki daryo – Ko‘ksoy va boshqa kichik irmoqlar orasida joylashgan bo‘lib, tabiiy jihatdan unumdor, sug‘orishga qulay yerlar bo‘lgan. Manbalarda Miyon Rudan qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli bo‘lgan hudud sifatida tilga olinadi[57]. Bu yerda asosan sug‘orma dehqonchilik, bog‘dorchilik, polizchilik, ba’zi joylarda ipakchilik rivojlangan. Aholi joylashuvi daryo bo‘ylarida zich bo‘lgan, shuningdek, sug‘orish inshootlari – ariq va kanallar orqali dehqonchilikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Miyon Rudan hududi karvon yo‘llarining o‘tishi bilan ham ahamiyatli bo‘lib, u savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojiga hissa qo‘shgan. Shuningdek, u ba’zi manbalarda o‘zining tabiiy boyliklari – serhosil yerlar, toza suv manbalari bilan alohida qayd etiladi.

Katta hududga ega bo‘lgan Farg‘ona geograflar tomonidan uch qismga bo‘lingan. X asr arab sayyohi va geografi Muqaddasiy ham shunday fikr bildirgan. Unga ko‘ra, “Miyon-Rudan” – Norin va Qoradaryo oralig‘idagi shaharlar (Nasrobod, Minora, Ranjed, Shikit, Zarkan, Hayrlom, Beshbeshan, Ushtikan, Zandaromish, O‘zkend), Nasyo bo‘limi – Farg‘onaning janubidagi shaharlar (O‘sh, Qubo, Barang, Marg‘inon, Rishton, Vankas, Kand) va Vag‘iz bo‘limiga Sirdaryo shimolidagi shaharlar (Bukand, Koson, Bob, Chorek, Asht, Tubkar, Avval, Dijarkard, Navkad-Miskan, Bigan, Tishon, Eshixon, Jidg‘il, Shavdan). Biroq, u ba’zi shaharlarning joylashuvini nohiyalar kesimida keltirishda yanglishadi. Birinchi guruhda Ushtikan va Zandaromish, uchinchi guruhda Aval va Miskan shular jumlasidandur.

---

[55] Ибн Ҳавқал. Китаб сурат ул-ард. – Б. 81.

[56] Barthold V. Fergana // İA. IV. – İstanbul, 1977. – S. 558.

[57] Йакут. Муджам ал-булдан. Т. 7. – Б. 315.; Al-Makdisi. Descriptio imperii... – P. 272.; Ибн Ҳавқал. Китаб сурат ул-ард. – Б. 81.

Sirdaryoning shimoldagi qismi, g‘arbda Xo‘jand shimoldan sharqda O‘zgandning oxirigacha bo‘lgan hududlarda Axsikas, Koson, Bob (Pop), Samg‘ar, Chorak, Asht, To‘bkor, Dijarkard, Novkad, Bigon, Tishon, Eshixon, Shovdan va Bo‘kand shaharlari joylashgan. Shimolida Hojiston, Ardlankas kabi aholi punktlari, Najm, Karvon va Jidg‘il hududlari bor[58].

Manbalarda qayd qayd etilishicha, viloyatning poytaxti “Axsikat” shahri bo‘lib, xitoy manbalarida “Shijyan”[59], as-Sam’oniy[60] va Yakut Hamaviy[61] asarlarida Axsikas tarzida tilga olinadi. Beruniy asarida uning koordinatalari 92°07’ uzunlik 42°00’ kenglik miqdorida berilgan[62]. Zamonaviy sun’iy yo‘ldosh texnologiyasi asosida 71° 77′ sharqiy uzunlik hamda 40° 10′ shimoliy kenglik ekanligi aniqlangan[63]. Al-Xorazmiy asrida esa 96°30’, 36°40’ koordinatalari keltirilgan[64]. Elektron xarita manbasi yordamida koordinatalar solishtirilganda, Al-Beruniyning ma’lumotlari al-Xorazmiynikiga qaraganda aniqroq ekani kuzatiladi[65]. Xishkat (خشكت) – Farg‘ona viloyatining bosh shahri. Boshqa manbalarda uning nomi Axsikat (اخسيكث) yoki Axshikat (اخشيكث) shaklida keltirilgan[66]. Sug‘d tilidagi manbalarda bu shaharning nomi’γsyknδh (Axsēkand) va’xsyk’θ (Axsēkath)[67], xitoy manbalarida Sichen shaklida qayd etilgan[68]. So‘nggi o‘rta asrlarda uning nomi Axsi (اخسي)[69], tangalarda esa Axshi (اخشي) va Axsikat (اخسيكت) shakllarida qayd etilgan[70]. VIII asrga oid sug‘d hujjatlarida Zarafshon daryosi yuqori oqimi havzasida joylashgan’xsyknδh (xsyknδh,’xsyktc) nomli qishloq qayd etilgan[71]. Hozir bu qishloq Xushikat deb ataladi. Bu nom sug‘dcha xšyn (xsyn) – “yashil” yoki (‘)xns – “mustahkam” so‘zlaridan yasalgan[72]. Boshqa fikrga ko‘ra, bu nom turkcha ak – “oq” va sug‘dcha kaθ – “shahar” so‘zlaridan yasalgan bo‘lishi ham mumkin[73]. Ehtimol bu shaharning nomining kelib chiqishi Norin daryosining eski nomi Oqsuv gidronimi bilan bog‘liqdir[74].

---

[58]Йакут. Муджам ал-булдан // МИСЦА. – С. 84.; Al-Makdisi. Descriptio imperii... – P. 271-272.; Minorsky. Hudud. – P. 116.; Ibn Khordadhbeh, Abu-l-Kasim ‘Obaydallah ibn ‘Abdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik. – P. 30; Kodama ibn Djafar, Accedunt excerptae Kitab al-Kharadj. – P. 208.; Ибн Ҳавқал. Китаб сурат ул-ард. – Б. 81.

[59].718 .س .– يڭى تاڭنامه

[60]Ас-Самъоний. Насабнома. – Б. 150., Камолиддин Ш. Сведения «Китаб ал-ансаб» Сам’ани о Фергане // ОНУ. №1. Ташкент, 1974. – С. 38.

[61]Йакут. Муджам ал-булдан // МИСЦА. – С. 84.

[62] Избранные сочинения. Канон Мас’уда. Абу Райхан Беруни. Т. V. – Ташкент, 1973. – С. 471.

[63] WAD. 1998.

[64] Булгаков П.Г., Розенфельд Б.А., Ахмедов А.А. Мухаммед ал-Хорезми. – Москва. 1983. – С. 199.

[65] WAD. 1998.

[66] al-Istakhri. – P. 333, 335, 336, 346, 347; Ibn Haukal. – P. 512–513, 524; al-Moqaddasi. – P. 48, 262, 271, 341.

[67] Gharib B. Sogdian Dictionary. Sogdian-Persian- English, Tehran, 1995. – P. 27 (709), 28 (710).

[68]Chavannes E. Documents sur les Tou-Kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции, вып. 6. СПб., 1903. – P. 357.

[69] Бабур-наме. – С. 4б, 5а, 7б ... 234 аб.

[70] von Zambaur. – P. 38.

[71] Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. 2. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А.Лившица. – Москва: Изд-во вост. лит-ры, 1962. – С. 145; 1963: 30, 90, 101–102.

[72] Лурье. 2004. – С. 90; 95.

[73]Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. 3. Хозяйственные документы / Чтение, перевод и комментарии М.Н. Боголюбова и О.И.Смирновой. – М.: Изд-во вост. лит-ры, 1963. – С. 101.

[74]Аскаров А. Кадимги Фарғона тарихидан лавҳалар // Археология и история Центральной Азии. – Самарканд, 2004. – С. 26.

IX–XIII asrlarda Farg‘ona vodiysi murakkab hududiy-ma’muriy tuzilishga, yuqori darajada rivojlangan irrigatsiya tizimlariga va strategik jihatdan qulay geografik joylashuvga ega bo‘lgan yirik mintaqaviy markaz sifatida shakllandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vodiyning Yuqori va Quyi Nasyo nohiyalari agrar-iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan hududlar sirasiga kirgan. Daryo va soy bo‘yida joylashgan unumdor yerlar, ko‘p tarmoqli sug‘orish inshootlari va zich aholi punktlari bu nohiyalarning iqtisodiy ustunliklarini ta’minlagan. Mazkur hududlar nafaqat dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda, balki ichki va transhududiy savdo tizimida ham muhim bo‘g‘in vazifasini bajargan.

Miyon Rudan nohiyasi tabiiy suv resurslari bilan ta’minlangan bo‘lib, karvon yo‘llarining kesishgan nuqtasida joylashgani uni savdo-iqtisodiy va madaniy almashinuv jarayonlarida markaziy pozitsiyaga olib chiqqan. Bu hududda hunarmandchilik, xususan metallsozlik, kulolchilik va to‘qimachilik rivojlanib, mahalliy va tashqi bozorlar talabini qondirishga xizmat qilgan. Shuningdek, Miyon Rudan iqtisodiy va transport-logistik tizimda Farg‘ona vodiysi bilan Sirdaryo bo‘yi hamda undan tashqaridagi mintaqalar o‘rtasida tranzit hudud vazifasini bajargan.

Sirdaryo shimolidagi shaharlar IX–XIII asrlarda Markaziy Osiyo, Dashti Qipchoq va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy integratsiyani ta’minlovchi yirik savdo-diplomatik markazlar sifatida shakllandi. Ipak yo‘lining mahalliy tarmoqlaridan biri aynan ushbu hudud orqali o‘tib, ipak, qimmatbaho toshlar, metall buyumlar, ziravorlar kabi savdo tovarlari bilan bir qatorda ilmiy-ma’rifiy va madaniy g‘oyalar almashinuvini ham jadallashtirdi. Bu shaharlar, shuningdek, mintaqalararo siyosiy aloqalarda ham vositachilik vazifasini bajargan.

Dissertatsiyaning **“Farg‘onaning ijtimoiy-iqtisodiy tarixiy geografiyasi”** deb nomlangan oxirgi bobida savdo, dehqonchilik va chorvachilik, Shaharlar joylashuvi hamda tuzilishi, Farg‘ona vodiysiga islom dining kirib kelishi va diniy hayot masalalari tahlil qilingan.

Movarounnahr viloyati, o‘zining unumdor yerlari, musaffo havosi, chuchuk suvi, xonaki hayvonlarning ko‘pligi, boshoqli ekinlari, mazali va yoqimli mevalari bilan dunyoning eng go‘zal maskanlaridan biri edi. Shu boisdan ham tarixda ochlik, qashshoqlik, o‘lim ko‘p bo‘lgan og‘ir damlarda ham viloyat ahli bu musibatlarga tushmagan[75]. Arpa, bug‘doy, har xil uzum, anjir, anor, olma, nok, behi, o‘rik, shaftoli, tut, tarvuz, qovun, sifatli bodring, no‘xat, sholi va tamaki mahsulotlari yetishtirilgan[76]. Farg‘onada ilg‘or dehqonchilik va sug‘orish texnikasi qo‘llanilgan bo‘lsa, ko‘p nuqtalar obod qishloq va shaharlar bilan bog‘langan. Ibn Havqal bu yerda qishloqlar ko‘p bo‘lganligini va dehqonchilik yerlari keng maydonga yoyilganligini ta’kidlaydi[77]. Yovvoyi tabiatda daraxtlar hozirgidan ancha ko‘p bo‘lgan. Masalan, VIII–X asrlarda vodiyning shimoliy chekkalarigacha cho‘zilgan o‘rmonlarda yong‘oq, o‘rik, yovvoyi olma va chinor daraxtlari ko‘rilgan.

[75] Хамави, Йакут. Муджам ал-булдан // МИСЦА. – С. 84; Şemseddin Sâmî. Kâmûsu’l-A’lâm. I–VI. – İstanbul, 1316. VI. – S. 4140; Barthold V. Mâverâü’n-Nehr // İA. VII. – İstanbul, 1977. – S. 408; Barthold V. Moğol İstilasına Kadar Türkistan. – S.67; al-Istakhri. – P. 287.

[76] Kalkoshandiy, Ahmad b. Ali. Subhu’l-A’sho fi Sıno’ati’l-Insho. I–XIV. – Bayrut, 1987. IV. – B. 431.

[77] Ibn Haukal. – P. 512–513.

Qishloq xo‘jaligida donli va texnik ekinlarning o‘rni yuqori bo‘lgan. Xitoy solnomalarida qayd etilishicha Farg‘onada qadimdan bug‘doy va guruch ekilgan[78]. Bu mahsulotlar bilan artofdagi hududlarni ham ta’minlab turgan. Masalan, Xo‘jand viloyatining o‘z qishloq xo‘jalik mahsulotlari bo‘lmaganligi sababli uni asosan Farg‘ona va Usturushonadan olib kelingan[79]. Yaqut Hamaviy ham Xo‘jandga bug‘doy Farg‘onadan olib kelinadi deya qayd etib o‘tgan[80]. Donli ekinlarning ko‘p ekilganiga yana bir dalil xitoy manbalarida keltirib o‘tilgandek, vodiy aholisi ko‘p miqdorda tandir noni iste’mol qilar ekan[81]. Muqaddasiyda keltirilishicha, Miyon-Rudan nohiyasidagi Zorakon hududida ko‘p miqdorda sholi yetishtirilgan[82]. Texnik ekinlardan asosan paxta ekilgan. Garchi bevosita manbalarda bu yerda paxta ekilganligi haqidagi ma’lumot berilmasa-da, ammo xitoy solnomalarida vodiy odamlari asosan paxtadan tikilgan kiyim kiyishgan[83], degan satrlar bu fikrga asos bo‘lishi mumkin.

Farg‘onada qishloq xo‘jaligining eng keng tarqalgan va serdaromad tarmoqlaridan biri bog‘dorchilik edi. Vodiyni o‘rab turgan tog‘ yonbag‘irlaridagi kichik daryo va soylarning havzasi to‘liq bog‘lar bilan qoplangan edi. Arab sayyohlarining asarlarida qayd etilishicha, vodiydagi har bir shahar atrofi birnecha farsah masofagacha bog‘lar bilan o‘ralgan[84]. Masalan, Ibn Havqalda: “Rabadning barcha darvozalari oqar suvli qalin bog‘larga chiqqan bo‘lib, bu bog‘lar shahardan kamida 2 farsax masofadagi yergacha davom etadi”[85] deya qayd etilgan.

Xo‘jalikning keyingi muhim sohasi chorvachilik edi. Xitoy manbalarida ilk o‘rta asrlarda Farg‘ona vodiysida chorvachilikning yilqichilik sohasi taraqqiy etganligi qayd etilgan[86]. Ibn Havqal ham Farg‘onada yilqichilik rivojlanganligi, hatto bu yerda oddiy odamlar ham 100 tadan 500 tagacha otga ega bo‘lishi mumkin, deb yozgan[87]. Chorvachilikning keyingi sohasi qo‘ychilik bo‘lib, vodiyda bu soxa ham taraqqiy etgan edi. Xitoy manbalarida keltirilishicha, Farg‘ona aholisi paxtadan tashqari jun va qo‘y terisidan tikilgan kiyimlar kiyishgan. Ko‘p miqdorda tuya va qo‘y boqishgan[88]. “Hudud ul-olam”da vodiyda parvarish qilingan qo‘ylarning miqdori ko‘p bo‘lganligi qayd etiladi[89]. Ibn Havqalning yozishicha, Koson hududida ko‘p miqdorda chorva mollari va qo‘y boqilgan[90].

Farg‘ona iqtisodiyoti o‘zining oltin davrini Somoniylar davrida o‘tkazdi. Bu davrda g‘alla, meva-sabzavot yetishtirish yetarli darajada bo‘lsa-da, go‘sht va chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj shimoliy va sharqiy qo‘shnilardan ta’minlanar edi[91]. Farg‘ona o‘zining savdo va iqtisodiy jihatlari bilan birinchi

---

[78] جننامه. – س. 735–736.
[79] Ибн Ҳавқал. Китаб сурат ул-ард. – Б. 79.
[80] Йакут. Муджам ал-булдан // МИСЦА. – С. 88.
[81] Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. – Б. 120.
[82] Al-Makdisi. Descriptio imperii... – P. 271.
[83] Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. – Б. 120.
[84] Мамадалиев Ҳ. IX–X асрлар... – Б. 141.
[85] Ибн Хаукал. Китаб сурат ул-арз // МИСЦА. – С. 18.
[86] Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. – Б. 96; 119; 121.
[87] Ибн Ҳавқал. Китаб сурат ул-ард. – Б. 21.
[88] Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. – Б. 96; 120.
[89] Minorsky. Hudud. – P. 116–117.
[90] Ибн Ҳавқал. Китаб сурат ул-ард. – Б. 79.
[91] Roux, Jean-Paul. Orta Asya Tarih ve Uygarlık (çev. Lale Arslan). – İstanbul, 2001. – S. 235.

o‘ringa chiqdi. V.V.Bartold bu fikrni Farg‘onaning Sirdaryo janubidagi qismigagina tegishli ekanligini ta'kidlaydi[92]. Yana bu davrda Farg‘ona va Isfijobdan islom olamining turli hududlariga turk qullari[93], oq matolar, qurol-yarog‘, zirh va qilichlar, mis va temir olib kelingan. Ibn Havqalning qayd etishicha, sharqning eng sog‘lom, eng baquvvat, eng go‘zal va eng qimmat qullari Farg‘ona va Shosh yerlari bilan chegaradosh joylardan olingan[94]. Tarixchi Jan Poul Rou esa bu ma’lumotlarni umumlashtirib, qullar Farg‘ona shimolidagi dashtlardan sotib olinganligini qayd etadi[95]. Al-Muqaddasiy vodiyda me’morchilikning rivojlanganligini birgina misol bilan ko‘rsatib o‘tadi. Uning yozishicha, Axsikat Farg‘onaning poytaxti, keng va atrofi daraxtlar bilan o‘ralgan muhim shahar bo‘lgan. Shahar pishiq g‘isht, gips va ohakdan yaxshilab qurilgan. Masjid va binolarning ko‘pchiligi ichki shaharda qurilgan. Keng tashqi hududlar kuxandiz va bozorlar bilan o‘ralgan[96].

Arab manbalarida Farg‘ona vodiysi shaharlari soni turlicha keltiriladi. Jumladan, al-Istaxriyda 20 ta[97], al-Muqaddasiy asarida 33[98] ta ko‘rsatilgan. al-Istaxriyda keltirilgan 20 ta shahardan 6 tasi al-Muqaddasiy asarida nomi uchramaydi[99]. Ularni al-Muqaddasiy keltirgan raqamlarga qo‘shsak shaharlar soni 39 taga yetadi. Al-Beruniy asarida Xakas? (حكث yoki حيكث) nomli shahar haqida yozib, uning 93, 50 uzunlik 42,30 kenglikda joylashganligini keltiradi[100]. Lekin Beruniy yozib ketgan shahar nomi al-Istaxriy, al-Muqaddasiy va boshqa arab manbalarida uchramaydi. Agar Beruniy keltirgan shaharni ham hisobga olinsa Farg‘ona vodiysi shaharlari soni 40 taga yetadi. 93, 50 uzunlik 42,30 kenglik hozirgi kordinatalar tizimida 72–74° sharqiy uzunlik va 40–41° shimoliy kenglik oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Sababi, arab geograflari asos qilib olgan Klavdiy Ptolemey koordinatalar tizimi Kanar orollaridan boshlaganligi sababli uzunliklar sharqqa tomon siqilgan. Shu sabab, 93, 50 uzunlik 42,30 kenglikda joylashgan Xakas? (حكث yoki حيكث) nomli shahar Farg‘ona vodiysining sharqiy qismi, Andijon viloyati yoki O‘sh shahri va uning atrofi hududlariga mos kelishi mumkin. Jumladan, Al-Beruniy asarida Xakas? (حكث yoki حيكث) nomli shahar hozirgi Xakan qishlog‘i (Andijon tumani)ga to‘g‘ri kelishi mumkin. Xakan qishlog‘i

[92] Barthold V. Fergana // İA. IV. – İstanbul, 1977. – S. 560.
[93] Şeşen R. İslâm Coğrafyacılarına Göre Türkler ve Türk Ülkeleri. – S. 99.
[94] Ibn Haukal. – P. 465.
[95] Roux, Jean-Paul. Orta Asya Tarih ve Uygarlık. – S. 235.
[96] Al-Makdisi. Descriptio imperii.. – P. 271.
[97] Istaxriy asarida Vonkas, Sudj (Sux), Xvokand, Rishton, Marg‘inon, Zandoramish, Barank, Ishtikon, Tamaxash, Aval, Miskan, Osh, Qubo, Madva, O‘zkand, Koson, Ardlankas, Xaylom, Karvon va Xujanda shaharlari tilga olingan. Qarang: Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. – Б. 178-182.
[98] Al-Muqaddasiy asrida Vonkat, Rishton, Marg‘inon, Zandoramish, Barank, Ishtikon, Aval, Miskan, Osh, Qubo, O‘zkand, Koson, Xaylom, Nasrabaz, Manora, Randjad, Shikit, Tasxan, Zarkan, Bashbashan, Kand, Bo‘kand, Bab, Jarak, Asht, To‘pkar, Dakarkard, Navqad, Bikan, Ushtixon, Didgil, Shavdan va Xujanda shaharlari tilga olingan. Qarang: Al-Makdisi. Descriptio imperii... – P. 271.
[99] Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Л.: Наука, 1973. – С. 203.
[100] Избранные сочинения. Канон Мас'уда. Абу Райхан Беруни. Т. V. – Ташкент, 1973. – С. 471; Бейсебаев Р.С. Арабские источники IX – начала XIII вв. о Восточном Мавераннахре. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Санкт-Петербург, 2008. – С. 42-82, 83-171.

koordinatalari 40.7977° kenglik, 72.4447° uzunlik[101]. Yuqorida tilga olingan 40 ta shaharlardan 22 tasining hozirgi kundagi lokalizatsiyasi aniqlangan[102].

Tarixiy manbalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, islom dini vodiyda ikki yo‘l bilan tarqaldi. Birinchisi, harbiy yurishlar va arablarni vodiyga ko‘chirish bo‘lsa, ikkinchisi, musulmon ulamolarining Farg‘onadagi missionerlik faoliyatidir. Tarixiy manbalarda ma’lum bo‘lgan Farg‘onada islomni targ‘ib qilgan dastlabki faqih Abu ‘Amr Omir ibn Sharohiyl al-Kufiydir (640–722). Abu ‘Amr Omir vodiyga Qutayba ibn Muslimning yurishi arafasida Hajjoj ibn Yusuf (661–714) ta’qibidan qochib kelgan edi[103].

Vodiyda arablarning mavqeini oshirish uchun Xuroson noibi Nasr o‘z sarkardalaridan biri Muhammad ibn Xolid al-Azdiyni 10 ming arabga bosh qilib Farg‘onaga yubordi[104]. Bu tadbir Farg‘onada islom dinining keng yoyilishiga xizmat qilganligi shubhasiz. Xalifa Horun ar-Rashid IX asr boshlarida Farg‘onaga islom dinini chuqurroq yoyish maqsadida o‘zining alohida dasturga ega bo‘lgan amaldorlarini yuboradi[105]. Bundan tashqari tarixiy manbalarda Abu Ma’oz al-Balxiy va ‘Abdulaziy ibn Xolid ibn Ziyod ibn Jarvalning Farg‘onaga surgun qilinganligi ko‘rsatiladi. Biri hadis ilmi yetuk bilimdoni va ikkinchisi islom huquqshunosi bo‘lgan bu ikki ulamoning say-harakati bilan 100 ming kishi Choch hamda Farg‘onada islom dinini qabul qiladi. Bu voqealar 190/807-yilda bo‘lib o‘tganligi aytiladi[106]. Shuningdek, manbalarda Abu Usmon Salm ibn Hafs al-Fizoriy 211/827-yilda vafot etganligi, unga Farg‘ona vodiysi Ahmad ibn Asad janoza o‘qiganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud. Abu Usmon Salm yetuk islom ulamosi bo‘lib, uzoq yillar Samarqandda qozilik qilgan[107]. Ulamoning Farg‘onaga kelishidan asosiy maqsadi aytish mumkinki, islom dinini targ‘ib qilishdan iborat bo‘lgan. Kosonda islom dinini targ‘ib qilish chog‘ida shahid bo‘lgan yana bir shaxs, “Ollohning qilichi” nomini olgan lashkarboshi, qozi va imom Abuljud Ato ibn Ahmad ibn as-Sodiq al-Xoliddir[108]. U g‘arb adabiyotlarida “Sahro ritsari” nomini olgan Xolid ibn Valiydning nabirasi hisoblangan. Abuljud Ato ibn Ahmadning Kosonda o‘ldirilishi vodiyda islom dinining qaror topishi og‘ir kechganidan dalolat beradi. IX asr oxiri X asr boshlariga kelib esa arab muarrixlari va geograflari vodiyning chegara shahri hisoblangan O‘zgandda ham jome’ masjidi mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumot bergan. Bu ma’lumot islom dinining X asrga kelganda keng yoyilganidan guvohlik beradi. X asr arab tarixchi va sayyohlari Farg‘onadagi 40 dan ortiq shaharning har birida masjid bo‘lganligini qayd etadilar[109]. Demak, Somoniylar davriga kelganda islom dini vodiyda keng yoyildi va vodiy bo‘ylab har bir shaharda masjidlar barpo etilgan. Vodiydagi qadimiy

[101] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BD%D0%B4%D0%B8%D0%B6%D0%B0%D0%BD%D1%81%D0%BA%D0%B8%D0%B9_%D1%80%D0%B0%D0%B9%D0%BE%D0%BD

[102] Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Ленинград: Наука, 1973. – С. 203.

[103] Насафий. 2001. – Б. 188–189.

[104] Ibnu’l Esir. Islam tarihi. V. – S. 211.

[105] The History of al-Tabari. Vol. 34. – P. 283.

[106] Насафий. 2001. – Б. 8–9.

[107] Насафий. 2001. – Б. 32–33.

[108] Насафий. 2001. – Б. 181.

[109] Al-Makdisi. Descriptio… – P. 271–272., al-Shahristani. I. – P. 530.

dinlarga oid ibodatxonalar endilikda yangi din – islom dinining masjidlariga almashdi. Arablar O‘rta Osiyoga kelgan vaqtda dastlab zardushtiylik ibodatxonalarini masjidlarga aylantirishgan edi. Ammo arablar bilan bir asr mobaynidagi olib borilgan doimiy urushlar Farg‘onadagi zardushtiylik ibodatxonalarining vayron etilishiga olib kelgan va bu yerdagi masjidlar yangidan barpo etilgan, deb taxmin qilishimiz mumkin.

XULOSA

Farg‘ona vodiysi hududiga oid IX–XIII asr boshlariga tegishli arab tilidagi tarixiy-geografik asarlar matnlarini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Xitoy, arab va fors tilidagi yozma manbalar Farg‘ona vodiysining mintaqalararo hamda qit’alararo savdo-tranzit yo‘llari chorrahasida joylashganligini isbotlaydi. Aynan shu geografik holat vodiyda o‘ziga xos siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratgan, natijada asrlar davomida Markaziy Osiyoning o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvachilik madaniyatlari o‘zaro sintezlashgan, o‘ziga xos madaniy-tarixiy makonga aylangan.
2. Arab manbalariga yangicha manbashunoslik yondashuvi qo‘llanilishi natijasida ularning ishonchlilik darajasi qayta baholandi. Xususan, Ibn Xurdodbehning Farg‘ona vodiysi shaharlari orasidagi masofalarga oid ma’lumotlari zamonaviy geografik o‘lchovlar bilan solishtirilganda, ko‘p marotaba ko‘chirib yozish jarayonida yuzaga kelgan raqamli xatoliklar aniqlandi. Shu asosda vodiy hududi uchun “farsax” o‘lchov birligining real uzunligiga aniqlik kiritildi.
3. Abu Rayhon al-Beruniy asarlarida uchraydigan Xakas (حكث / حيكث) toponimining tarixiy-geografik lokalizatsiyasi manbashunoslik, kartografik, toponimik va qiyosiy-tarixiy tahlil usullarini kompleks qo‘llash asosida amalga oshirildi. Yozma manbalarda qayd etilgan toponimning fonetik-grafik variantlari, geografik konteksti hamda hududiy nomlar bilan qiyosiy tahlili natijasida uning hozirgi Andijon tumani hududidagi Xakan qishlog‘i bilan tarixiy-geografik jihatdan bog‘liqligi ilmiy dalillar asosida asoslandi. Mazkur natija Farg‘ona vodiysi tarixiy geografiyasiga oid ayrim toponimlarning lokalizatsiyasini aniqlashtirishda manbashunoslik va tarixiy kartografiya metodlarining samaradorligini ko‘rsatadi.
4. Al-Xorazmiy va Yoqut al-Hamaviy tomonidan keltirilgan Farg‘ona vodiysiga oid geografik ma’lumotlarning o‘xshashligi tahlil qilinib, ularning asosiy manbasi yunon geografik an’analari, xususan, Ptolemey asarlari ekanligi tarixiy manbalar asosida isbotlandi.
5. Farg‘ona vodiysida islom dinining tarqalishi va qaror topishi xronologiyasiga oid tarixshunoslik qarashlari qayta ko‘rib chiqildi. Ilmiy adabiyotlarda islom dini XI asrga kelib vodiy aholisi tomonidan umumiy din sifatida uzil-kesil qabul qilinganligi haqidagi qarashlarning manbaviy asoslari tanqidiy tahlil qilindi. Xususan, vodiy hududiga keyingi davrlarda migratsiya yoki harbiy-siyosiy jarayonlar natijasida islomni hali qabul qilmagan ayrim turkiy qabilalarning kirib kelishi holatlari islomlashuv jarayonining umumiy

xronologiyasini belgilovchi yagona mezon bo‘la olmasligi aniqlandi. Xitoy, arab va fors tilli manbalar ma’lumotlarini o‘zaro qiyoslash natijasida Farg‘ona vodiysining shahar va qishloq aholisi orasida islom dini IX asrdayoq keng tarqala boshlaganligi va ijtimoiy-madaniy hayotning muhim tarkibiy qismiga aylanganligi asoslandi. Shu bilan birga, ayrim ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi guruhlarning islomlashuv jarayoni keyingi asrlarda ham davom etganligi umumiy islomlashuv jarayonining hududiy va ijtimoiy jihatdan notekis kechganini ko‘rsatadi.

6. Ilmiy adabiyotlarda arab tilidagi manbalarda IX–XIII asrlar Farg‘ona tarixiy geografiyasiga oid fikr va mulohazalar, asosan, arab istilolari hamda ko‘chmanchilarning Farg‘onaga bostirib kirishi bilan bog‘liq ayrim yirik voqealar tavsifi jarayonida uchraydi. IX–XIII asrlar Farg‘ona vodiysi tarixiy geografiyasiga oid maxsus ilmiy izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan. Tarixshunosligimizda IX–XIII asrlar Farg‘ona vodiysi tarixiy geografiyasiga oid tadqiqotlar, asosan, VII asrning birinchi yarmi va VIII asr boshlariga taalluqli.

7. Mavzuga oid mavjud izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, IX–XIII asrlarga oid arab tilidagi manbalarda Farg‘ona vodiysining tarixiy geografiyasi bilan bog‘liq masalalar milliy tarixshunosligimizda hali-hanuz to‘liq va mukammal o‘rganilmagan. Mazkur davrga oid manbalar va arxeologik ma’lumotlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni umumlashtirgan, tizimli ravishda tahlil qilgan hamda tarixiy-geografik jihatdan kompleks yondashuv asosida tadqiq etgan fundamental ilmiy ishlar deyarli mavjud emas. Aksariyat tadqiqotlarda hududga oid ma’lumotlar fragmentar holatda, alohida masalalar doirasida yoritilgan. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysining o‘rta asrlardagi siyosiy-ma’muriy bo‘linishi, iqtisodiy va madaniy markazlari, tabiiy-geografik omillarning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri kabi masalalar tarixiy kontekstda chuqur o‘rganilishga muhtoj. Shu sababli mazkur mavzuni zamonaviy tarixshunoslik talablariga javob beradigan yondashuvlar asosida qayta tahlil qilish zarur.

8. Arab mualliflari ushbu mintaqa tarixiga, asosan, arab istilolari bilan bog‘liq jihatlardan kelib chiqib qiziqish bildirganlar. Shu sababli arab tilidagi manbalarda Farg‘ona vodiysining islomdan oldingi tarixiy geografiyasiga oid ma’lumotlar nisbatan kam bo‘lib, ular ko‘p jihatdan eski fors tilida yaratilgan manbalardagi ma’lumotlarga asoslangan.

9. X asrning birinchi choragida yozilgan at-Tabariyning “Ta’rix ar-rusul va-l-muluk” asarida Farg‘ona vodiysi tarixiga oid ma’lumotlarning asosiy qismi al-Madoiniyga tayangan bo‘lib, u o‘z isnodlarini, ya’ni xabar uzatish zanjirlarini ko‘rsatmagan. Ikkinchi muhim manba – al-Balazuriyning “Futuh al-buldon” asarida ham ko‘plab ma’lumotlar manbaga aniq havola qilinmagan holda bayon etilgan. Biroq at-Tabariy asarida manbasi aniq ko‘rsatilgan matnlar bilan qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, al-Balazuriy keltirgan ma’lumotlar ham asosan o‘sha al-Madoiniy rivoyatlariga tayanadi. Shunga qaramay, mazkur ikki manba o‘rtasida matniy jihatdan to‘liq muvofiqlik mavjud emas, chunki al-Balazuriy, odatda, rivoyatlarni qisqartirib va ixcham shaklda keltirgan.

10. Al-Kufiyning “Kitob al-Futuh” asari boshqa arab manbalaridan ajralib turadi. Unda Markaziy Osiyoda yuz bergan voqealar haqidagi ma’lumotlar at-Tabariy asaridagi rivoyatlar bilan kamdan-kam hollarda mos keladi. Muallif o‘z

manbalarini juda kam hollarda tilga olgan bo‘lib, xususan, Farg‘ona vodiysi tarixiga oid ma’lumotlarda manba ko‘rsatilmagan.

